

**R.A. YO'LDOSHEV, L.R. MIRJALOLOVA**

**ONA TILI TA'LIMIDA  
KOMPETENSIYAVIY  
YONDASHUV**




**TOSHKENT**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**R.A.YO'LDOSHEV, L.R.MIRJALOLOVA**

**ONA TILI TA'LIMIDA  
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV**



**TOSHKENT-2019**

Jamiyatimiz globalashuv davriga kirgan bugungi kunda ta'lim va tarbiya samaradorligiga qo'yilayotgan talablar ortdi. Samaradorlik va natijadorlik mezoni sifatida o'quv fani DTS va o'quv dasturlariga kompetensiyaviy yondashuv singdirildi. Uzlüksiz ona tili ta'limi ilmida innovatsiyalar yaratish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, BKMLarni egallashdan kompetensiyalarga qarab borish, ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar darajasida shakllantirish, bunda psixologik va pedagogik asoslarni hisobga olish masalalariga ustuvor ahamiyat berila boshlandi. Ushbu masalalarni ilmiy asoslagan holda hal etish zaruriyati mavjudki, bu kabi yechilmay yotgan muammolar metodika fani sohasida ham, tarbiyachi va o'qituvchilarning nazariy-metodik tayyorgarligida ham o'zini sezdirib turibdi.

Mazkur metodik qo'llanmada yuqoridagi zaruriyatdan kelib chiqib ona tili ta'limidagi innovatsiyalar, nutqiy va lingvistik kompetensiyalar, ularning mohiyati, real tatbiqi, BKMLardan kompetensiyalarga o'tish mazmuni, dars jarayonini pedagogik texnologiyalar darajasida rejalashtirish, nazariy ma'lumotlarni o'rganish, mashq turlarining mohiyati, nima uchun xizmat qilishi kabi masalalar yoritilgan bo'lib, tarbiyachilar, ona tili o'qituvchilari, pedagogika oliy o'quv yurtlari, pedagogika bilim yurtlari talabalari, tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

**Mualliflar:** R.A.Yo'ldoshev – pedagogika fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi

**Taqrizchilar:** L.R.Mirjalolova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
R.Niyozmetova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent DO'TAU professori, pedagogika fanlari doktori

T.Yusupova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent DO'TAU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti ilmiy- metodologik seminarining 2019-yil 25-oktabridagi 1-sonli majlis bayonnomasiga ko'ra nashrga tavsiya etildi.*

## I BOB. INNOVATSIYALAR, KOMPETENSIYALAR, BKMLAR, PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Ta'limning sifati va samaradorligi BKMLar ustida olib boriladigan ishlarga, bu ishlarning davr talabiga javob beradigan natijali bo'lishiga, innovatsiyalar qo'llanganiga, dars jarayonlari pedagogik texnologiya darajasida loyihalaniishiga, kompetensiyalarni shakllantirish sari yo'nalganligiga, psixologik va pedagogik asoslar nazarda tutilganiga bog'liq.

### **Innovatsiyalar xususida.**

O'tgan asrning 90-yillarigacha va istiqloq davrida har bir olim (M.Omilxonova, K.Qosimova, R.Abdulaxatova, A.G'ulomov, R.Inog'omova va b.) ona tilini o'qitish metodikasi ilmiga o'z xulosalari va takliflari bilan yangilik (yangi g'oyalar) kiritish maqsadida izlanish olib borgan. Ushbu g'oyalar ilmiy asoslangan, amaliyotda tekshirib ko'rilgan bo'lsa-da, faqat oz qismi amaliyotga joriy etilgan, bugungi kunda ma'lum sabablarga ko'ra unutilgan, qolganlari innovatsiyalar shaklida qog'ozda qolib ketgan.

Innovatsiyalar<sup>1</sup> ikki yo'nalishda paydo bo'ladi: 1) ta'limning zamon talablariga ko'ra yirik ko'lamlil maqsad va vazifalari, shulardan kelib chiqadigan ta'limning umumiy mazmuni, asosiy yondashuv va tamoyillarini belgilash; 2) bevosita ta'lim-tarbiya jarayonini (ta'lim va tarbiya vositalari, metod va usullari, mashg'ulot, dars strukturasi komponentlarini) takomillashtirish.

Ta'lim va tarbiyaga umumiy yo'nalish beruvchi asosiy innovatsiyalar davlat tomonidan qonun, farmon, qarorlar sifatida qabul qilinadi. Masalan, ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, ta'lim olayotganlarni va tarbiya topayotganlarni ta'lim subyektlariga aylantirish kabi asosiy tamoyillar uchun asos yaratish, ikkinchi yo'nalishda zamon talabiga javob beruvchi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ta'lim va tarbiya bilan bog'liq innovatsiyalar: pedagogik va psixologik asoslar; ta'limning yangi yondashuvlari va tamoyillari; ta'lim vositalari (axborot-kompyuter texnologiyalari, didaktik, illyustrativ materiallar); ta'lim metod va usullari; nazariy bilimlar; mashqlar, savol va topshiriqlar tizimi; o'qituvchining (tarbiyachining) faoliyati;

---

<sup>1</sup> Innovatsiyalar bilan bog'liq mushohadalarimiz haqida qarang: Миржалолова Л.Р., Йўлдошев Р.А. Узлуксиз таълим соҳаларида инновацион технологиялар // Заминавий узлуксиз таълим муммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция. 27 апрель 2018 йил. I қисм. – Тошкент: ТДПУ, 2018. – 488-489-бетлар.

o'quvchining (tarbiyalanuvchilarning) faoliyati; dars strukturasi va yaxlit pedagogik texnologiya.

Ta'lim va tarbiya mazmuni «Bolajon», «Ilk qadam» Davlat talablari, o'quv fani Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv qo'llanmalarida tayin etiladi, vaqti-vaqti bilan, ilm-fan yutuqlariga ko'ra ayrim tuzatishlar kiritiladi, boyitiladi, ba'zan esa qarorlar asosida butunlay yangilanadi.

Innovatsion g'oyalar ta'lim va tarbiyaning turli shakllarida paydo bo'ladi: mashg'ulot, dars yoki ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rayotganda, goho bevosita amaliyot jarayonida. Tarbiyachi yoki o'qituvchi yangi g'oyani tatbiq etib ko'radi, bu ishni bir emas, bir necha marta takrorlaydi, har gal birday samaraga erisha boshlagach, o'zida tug'ilgan fikr asosida loyiha tuzishga kirishadi. Ammo «yangilik kiritish ichki mantiq va yo'nalishlarga ega bo'lib, u yangilik g'oyasi (fikr) tug'ilishidan to uning foydalanila boshlanishigacha bo'lgan harakatlarni rivojlantirish hamda innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mantig'ini ifodalaydi»<sup>2</sup>.

Uzluksiz ta'lim tizimida ilgari kashf etilmagan yangi g'oya sifatida tug'ilgan innovatsion texnologiyaning tan olinish jarayoni o'ziga yarasha murakkabliklarga ega. Ilk qadamlardan o'qituvchi yangi g'oya o'zini oqlab, samara berishi va, aksincha, bunday bo'lmasligi mumkin. O'zini oqlagan g'oyani bir necha bor tekshirib ko'rish zarur bo'ladi. Bu jarayon quyidagi tarzda kechadi: innovatsion loyiha → sinov → natija → loyihani takomillashtirish → o'zgargan loyiha → sinov → natija → barqaror, har gal takror olish mumkin bo'lgan (raqobatbardosh, xaridorgir) natija.

«Ilgari kashf etilmagan» ifodasini bejiz ishlatganimiz yo'q: tarbiyachi ham, o'qituvchi ham ilgari nimalar kashf etilmaganini bilish uchun shu kunga qadar qanday g'oyalar ixtiro qilinganidan xabardor bo'lib borishi kerak. Lekin bu oson ish emas: metodika ilmi tariqday sochilib yotibdi: ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha o'tgan asrning 90-yillarigacha himoya qilingan dissertatsiyalar Rossiya Federatsiyasi Davlat kutubxonasida, istiqloq davridagi bunday ishlar O'zbekiston Respublikasining turli kutubxonalarida, dissertantlarning o'zlarida saqlanmoqda.

Bugungi kunda ona tili o'qitish metodikasiga oid aksariyat metodik qo'llanmalar, monograyiyalar oz nusxada (100 tagacha) bosilmoqda:

<sup>2</sup> Мавлянова Р.А., Рахманкулова Н.Х. Бошланғич таълимда инновация: Методик қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. – 11-б

ularning ayrimlarini kutubxonalardan ham, kitob do'konlaridan ham qidirib topish mushkul.

Innovatsion g'oya yalpi ta'lim mazmuni, vositalari, metod va usullarining barchasi yuzasidan birdaniga paydo bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaga oid umumiy g'oya biror yetakchi yondashuv va tamoyillar, hatto yangi yo'nalishdagi o'quv fanlariga xos: amaldagidan farqli, yangi yo'nalishdagi o'quv fani innovatsiya deb qaralishi mumkin<sup>3</sup>. Bunday g'oyalar o'quv fani bo'yicha o'quv-metodik majmua mualliflar jamoasi tomonidan ham o'ziga xos metodik tizimda yaratilishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya sohasida yangi g'oyalar turli makon va turli zamonda turli tarbiyachi va oqituvchilar tomonidan kashf etiladi, shuning uchun ularni *to'plash* qiyin. Birinchidan, innovatsiyalar har qadamda uchraydigan narsalar emas: ular misqollab, bittadan ixtiro qilinadi. Shunday ekan, yangilik yaratildimi, uni to'plamga kititishni kutmay, sinab ko'rib qat'iy bir xulosaga kelingach, tezlikda ommalashtirish eng to'g'ri yo'ldir.

Yangilik yaratuvchilar tomonidan to'plangan g'oyalarni ommalashtirish mumkin bo'lgan axborot vositalarini quyidagicha uch guruhga ajratgan ma'qul: 1) o'qituvchining ish tajribasi aks etgan materiallar; 2) matbuot materiallari, nashrdan chiqayotgan ishlar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalari; 3) malaka oshirish kurslaridagi ma'ruzalar.

1. Tarbiyachi yoki o'qituvchi ish jarayonida o'zida paydo bo'lgan 1-2 yangi g'oyani ochiq muloqotda hamkasblariga ayon qiladi, ma'ruzalar tayyorlaydi, maqolalar e'lon qiladi, ushbu g'oyalarni veb-saytiga kiritadi.

Ish tajribasida nogahon tug'ilgan yangilikni payqash borasida bir-birining darsini kuzatish amaliyoti o'ziga xos qulayliklarga ega: *chetdan kuzatib borayotganlar* hamkasbi yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklarni ham, yangiliklarni ham payqaydilar va yozib boradilar, tahlil paytida erishilgan yutuqlarga alohida urg'u beradilar.

2. Innovatsion g'oyalar mutaxassislarining, metodist olimlarning ilmiy maqolalari, metodik tavsiyalari va qo'llanmalarida, dissertatsiya ishlarida bayon qilinadi. Bu ishlarda innovatsion g'oyalar ba'zan pedagogik, psixologik jihatdan, shuningdek, fandagi so'nggi ma'lumotlar orqali atroflicha ilmiy asoslangan hamda amaliyotda sinab ko'rilgan xulosalar tarzida, ba'zida shunchaki tavsiyalar tariqasida, ayrim hollarda tajriba-sinov orqali tekshirilmay ilgari suriladi. Ma'lumki, ayrim metodist

<sup>3</sup> Ладыженская Т.А., Ладыженская Н.В. Риторика как инновационный предмет школьного образования // Русский язык в школе. – М.: 2008, № 4. – С. 3–6.

olimlar amaliyotdan uzilgan holda izlanish olib boradilar. Bu esa yangi g'oyalarni texnika sohasida bo'lganidek sinab ko'rish, yutuq va kamchiliklarini kuzatish, aniqlash, texnologiyalarga tuzatishlar kiritish kabi muhim tadbirlarsiz xom-xatala holatda taqdim etishga olib keladi.

3. Innovatsion g'oyalar asosida to'plangan samarali ish tajribalari bilan amaliyot orasidagi vositachi – bu malaka oshirish kursida ma'ruzalar o'qiydigan o'qituvchidir. Bilimdon, o'z sohasining jonkuyari bo'lmish ma'ruzachilar zimmasiga ana shunday mas'uliyatli vazifa yuklangan. Tarbiyachilar va o'qituvchilar o'qish jarayonida fan yangiliklaridan xabardor bo'ladilar, bir qadar asoslangan, zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan tanishadilar. Kurs davomida joylarda tashkil etiladigan ochiq mashg'ulot va darslar, ularning muhokamasi bu bilimlarni yana ham puxtalash uchun xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlagan bo'lardikki, uch yil yoki undan avval innovatsion sanalgan g'oyalar tarbiyachi va o'qituvchilar ish tajribasiga singib ketgach, an'anaviy tus oladi. Fan sohasida bo'lgani kabi, metodika sohasida ham muntazam suratda o'zgarishlar jarayoni kechadi, yangidan-yangi g'oyalarga ehtiyoj sezilaveradi.. Buni inkor qilib bo'lmaydi.

E'tirof etish lozimki, *joriy etilmagan innovatsion g'oyalarning ma'lum bir qismi eskirmaydi*, shuning uchun yaqin va uzoq o'tmishda amalga oshirilgan izlanishlarga murojaat etib turish merosga bo'lgan ijobiy munosabatni anglatadi.

### **Kompetensiyaviy yondashuv xususida.**

Bugungi kunda ona tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuv davlat talabi darajasida ilgari surilgan g'oya sanalib, u aniq tavsifga ega: ta'lim natijalari sifatida o'quvchilarda tegishli malakalarni standart orqali belgilangan kompetensiyalar shakllanish darajasiga yetkazib hosil qilish, ya'ni malaka talablariga erishish mo'ljallanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilari muloqotda ishtirok etish, boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabda ta'lim olib bilishdek muhim tayanch kompetensiyani egallashlari lozim. Ona tili darslarida ular ijtimoiy munosabatlarning tilda aks etishini bilib olishlari, so'z va so'z shakllarining orfoepiya me'yorlariga javob beradigan talaffuzini (nutqiy kompetensiyaning asosiy unsurini) qo'lga kiritishlari, atrof olam bilan kengroq tanishish asosida hayot tajribalarini oshirishlari, jamoadagi o'z o'rnini anglay boshlashlari, muloqot istagida bo'lishlari, ko'p narsalarni bilishga ishtiyoq namoyon qilishlari kerak.

5–9-sinflarda soʻz zahirasini oshirish, grammatika kursini oʻrganish va tilning uslubiy boyliklarini, yozma nutq savodxonligini egallay borish birinchi asnoga chiqadi. Darslarda matn yaratishga boʻlgan eʼtibor kuchayadi.

Ona tili oʻquv fanidan tasdiqlangan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturida ikki xil kompetensiya belgilangan: nutqiy kompetensiya va lingvistik kompetensiya. Bularidan tashqari, quyidagi tayanch kompetensiyalar ham oʻz ifodasini topgan: TK1 – kommunikativ kompetensiya; TK2 – axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi; TK3 – oʻzini-oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi; TK4 – ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; TK5 – milliy va umummadaniy kompetensiya; TK6 – matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi<sup>4</sup>.

Odatda, ona tilidan har gal yangi mavzuni oʻrganish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv joriy etilsa, bilim → koʻnikma → malaka chizigʻida olib boriladigan taʼlimning pirovard natijalariga (malaka talablariga) toʻliq erishish shart, yaʼni ushbu chiziqning oxirgi nuqtasi – malaka shakllangan bosqich taʼminlanishi shart: malaka hosil boʻlsa, kompetensiya qoʻlga kiritildi deb sanalishi mumkin. Ayon boʻladiki, koʻnikma hosil boʻlgandan keyin kompetensiya shakllanmaydi, chunki kompetensiya bilimni oʻzlashtirish, amalda qoʻllash koʻnikma va malakalaridan yuqori turuvchi holat: layoqat yoki qobiliyat, taʼlimning pirovard natijasi, mahsulidir.

Metodik adabiyotlarda kompetensiyaning uch jihati ajratiladi: lingvistik; sotsiolingvistik; pragmatik kompetensiya<sup>5</sup>. Birinchisida ijtimoiy munosabatlarning soʻz va morfologik shakllarni ishlatishga taʼsirini bilgan holda muloqotda ishtirok etish layoqati tushuniladi. Pragmatik kompetensiya nutqning emotsional-hissiy tomonini anglatib, tabiatan lingvistik va nutqiy layoqatning yuqori darajasi hisoblanadi. Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartida kompetensiya malaka sifatida qaralib, «Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari»ni (bundan keyin qisqacha «Malaka talablari») belgilovchi omil sifatida koʻrsatilgan<sup>6</sup>: malaka

<sup>4</sup> Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi: Ona tili. Adabiyot (5–9-sinf). Oʻzbek tili. – Toshkent, 2017. – 18–22-betlar.

<sup>5</sup> Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизмида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришда қўлланилган таълим технологиялари. Т.: Т.Н.Қория Нивэий номидаги ЎзПФТИ, 2015.- 9-бет

<sup>6</sup> Умумий ўрта ва ўрта maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari: «Ona tili fanini» bulimi // Умумий ўрта таълимнинг davlat taʼlim standartini (2017 йил 6 апрель) Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами», 2017. – 140–143-бетлар.



talablariga erishilgandan keyingina kompetensiya haqida gapirish mumkin<sup>7</sup>.

*Lingvistik kompetensiya deganda* bilim → bilimga nisbatan ko'nikma → malaka chizig'idagi ishlar mahsuli tushuniladi. Aniqki, ushbu chizmaga ko'ra bilim dastlab mustahkamlanadi, ya'ni ilk ko'nikma hosil qilinadi; so'ng bilimni vaqti-vaqti bilan takrorlab borish orqali lisoniy mushohadalarda ishlatish malakasi darajasiga yetkaziladi. Bunda bilim, masalan, qaratqich kelishigi, uning so'roqlari, -ning qo'shimchasi yordamida hosil qilinishi haqidagi ma'lumot tegishli savol-javoblar yordamida xotirada olib qolinadi, nihoyat, qaratqich kelishigi haqida gapirish jarayonida so'roqlari va qo'shimchasi avtomatik yodga keladigan bo'ladi: lingvistik kompetensiya shakllanadi.

«Malaka talablari»ning lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid) A2 darajasiga ko'ra o'quvchi asosan «fonetik, leksik va grammatik tahlil qila oladi»<sup>8</sup> degan talab nazariy ma'lumotlarni o'rganish o'lchovi sanaladi. Yosh tilshunoslar sifatidagi ilmiy nutqqa yaqin bunday malakaga ega bo'lish yo'lida o'quvchi nazariy bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish maqsadi bilan bilim → ko'nikma → malaka chizig'ida mashqlar bajarishi kerak.

L.A. Trostensova morfologiyani o'rganish haqida shunday yozadi: «Bunday sharoitda morfologiya asosida nutqiy va imloviy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, boy, aniq, ta'sirchan, uslubiy farqlangan nutqni o'stirishning, ya'ni «Rus tili» o'quv fanining yetakchi maqsadiga erishishga yordam berishning iloji yo'q»<sup>9</sup>. Bizningcha, uzluksiz ona tili ta'limi tizimining keyingi bosqichlarida morfologiyaning maktab kursida o'rganilmagan tomonlari me'yoriy grammatika darajasida o'z aksini topishi to'g'ri bo'ladi.

*Nutqiy kompetensiya deganda esa* bilim → nutqiy birlik → ko'nikma → malaka chizig'idagi ishlar mahsuli tushuniladi. Bu yerdagi bilim nutqda bexato yoki xato qo'llanadigan, shuningdek, o'quvchilar uchun yangi *til hodisasi* bilan bog'lanadi, asosiy e'tibor ayni shu til hodisasini amalda to'g'ri qo'llash ustidagi ishlarga qaratilib, uni anglash, o'zlashtirish, nutqda qo'llash jarayonini ifoda etadi; dastlabki ko'nikma

<sup>7</sup> Yo'ldoshev R. Ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari // Global ta'lim va milliy mitodika taraqqiyoti mavzusidagi III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: «Print 25» MCHJ bosmaxonasi, 2019. – 211–215-betlar

<sup>8</sup> Umumiy urta ta'limning davlat ta'lim standarti. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14-сон. 143-б.

<sup>9</sup> Тростенцова Л. А. Обучение русскому языку в школе как целенаправленный процесс (морфологический аспект).— М.: Педагогика, 1990. – С. 3.

asta-sekin malakaga aylana boradi. Bunda bilim, masalan, qaratqich kelishigi, -ning qo‘shimchasining talaffuzi va imlosi, qo‘llanish xususiyatlari tavsifiy ma‘lumotlar, qoidalar yordamida o‘zlashtiriladi, mashqlar orqali nutqda to‘g‘ri ishlatishga doir ilk ko‘nikmalar hosil qilinadi, nihoyat, qaratqich kelishigi aytilganda va nutqda qo‘llanganda, -ning qo‘shimchasini to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish, qo‘llash avtomatik amalga oshirilaveradi.

Bilim unsurlaridan terminlarning nutqiy kompetensiya uchun xizmati bivositadir. Metodist olimi M.Mirmaxsudova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, termin tegishli qoidani eslash, darslikdan topish uchun ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi<sup>10</sup>.


Nutqiy kompetensiya bilan lingvistik kompetensiya biri ikkinchisiz yashay olmasligini quyidagi misol orqali ko‘rish mumkin: hozirgi zamon davom fe‘lini, uni hosil qiluvchi qo‘shimchalarni (-yapti, -moqda, -yotir, -ayotir) ma‘lum qilishi nutqiy kompetensiya uchun yetarli emas. Tilshunoslik ma‘lumotlarida -yapti qo‘shimchasi adabiy tilda asosan neytral uslubga xoshigi, -moqda, -yotir, -ayotir qo‘shimchalari ko‘proq tantanavor nutqqa (badiiy uslubga) mansubligi ta’kidlanadi. Agar nutq ehtiyojlari ko‘zlanmasa, lingvistik kompetensiya o‘z holicha asosan termin, ta’rif, tasnif, tavsif, qoidalardan iborat bilimlar bilan cheklanadi va o‘quvchilarda filologik bilimlarni vujudga keltirish yo‘siniga aylanadi. Masalan, sifatning ma’noviy guruhlariga (rang-tus, maza-ta’im va boshqalar) so‘zlash, matn yaratish paytida deyarli murojaat etilmaydi, demakki, ular bilim sifatidagina o‘zlashtiriladi.

Yuqorida aytilganlarni chizma ko‘rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (1-chizmaga qarang).

Ayon bo‘ladiki, lingvistik va nutqiy kompetensiyalar nazariy bilimning ikki pallasi: birida termin-tushuncha egallanadi, ikkinchisida shu bilim orqali taqdim etilayotgan til hodisasini nutqda to‘g‘ri qo‘llash sodir bo‘ladi. Nazariy bilim ham, til hodisasi ham vaqti-vaqti bilan ishga tushirilib turilmasa, egallangan kompetensiya darajasi sekin-asta pasayadi: unutishdan iborat regressiv harakat natijasida sifatini yo‘qotib boradi.

---

<sup>10</sup> Mirmaxsudova M.B. *Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5–7-синф она тили дарслари мисолида)*. Пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 89-б.



1-chizma. Kompetensiya turlarining farqli shakllanish jarayonlari.

Aytish mumkinki, nutqiy kompetensiya bilan lingvistik kompetensiyani tutashtiruvchi omil – bu til hodisasining talaffuzi va imlosi, adabiy tilda, shuningdek, turli uslublarda qo‘llanish xususiyatlari haqidagi bilim unsurlaridir. Ana shunday bilimlar tufayli ikkala kompetensiya baqamti yashash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ona tili ta‘limida nazariy ma‘lumotni mustahkamlash bosqichida ikki yo‘nalish ajralib chiqadi: *nutqiy kompetensiyani shakllantirishda foydalaniladigan ish turlari boshqa, lingvistik kompetensiyani o‘ziga xos*. Bilimni o‘zlashtirish ustuvor bo‘lsa, lingvistik kompetensiyani shakllantirishga oid mashqlar, nutq o‘stirish ustuvor sanalsa, nutqiy mashqlarga o‘tiladi yoki ikkala guruhga mansub ish turlari oldinmaykin, lekin alohida bosqichlar jarayonida bajariladi.

### **BKMLar xususida.**

«O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari»ning (Toshkent, 2018) «Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari» bo‘limida «Nutq va til», «O‘qish malakalari», «Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi» sohalari bo‘yicha talablar belgilangan (19–21-betlar); talablar yosh guruhlari (0–1, 1–2, 2–3, 3–4, 4–5, 5–6, 6–7) bo‘yicha to‘rt ustunga bo‘lib ko‘rsatilgan.

Bolalar uchinchi yosh guruhida bilim sifatida yangidan-yangi so‘zlar va so‘z shakllari bilan ko‘rsatmalilik asosida tanishib boradilar, so‘z

turkumlarini, soʻz maʼnolarini (maʼnodosh, zid maʼnoli soʻzlar) farqlaydilar, gap tarkibida, hikoya va qayta hikoyalarida, muloqotda ishlatadilar; soʻz, tovush, harf, boʻgʻin, gap haqida tushunchaga ega boʻladilar, toʻrtinchi yosh guruhiga kelib yozishni oʻrganadilar. Eng muhimi barcha tovushlarni aniq va toʻgʻri talaffuz qilish malakasini egallaydilar. Barcha yosh guruhlari boʻyicha belgilangan talablar hajmida nutq orqali tanishilgan bilimlar yuzasidan turli vositalar va usullardan foydalanish natijasida koʻnikma va malakalar hosil qiladilar.

Ona tili darslarida tilni oʻrganish jarayoni bilimni egallash: anglash, xotirada olib qolish, yuzaga kelgan nutqiy vaziyatda darhol xotirlash va nutqda qoʻllash yoki lisoniy mushohadalarda ishlatish tarzida sodir boʻladi. Bilimni mustahkamlash ishlari uni esda olib qolish yuzasidan avval koʻnikma, keyin malaka hosil qilish mazmunida amalga oshadi.

Bilimlarni xotirada saqlash va ulardan nutq jarayonida foydalanish BKMLarning shakllanishiga, shuningdek, xususiy malakalarning hosil boʻlishiga bogʻliq. Xususiy malaka deganda nazorat malakasi tushuniladi. Soʻzlayotgan kishining har bir soʻzi uning ilgari egallagan bilimlari nazoratida boʻladi. Odam til hodisasi yuzasidan lisoniy bilimga ega boʻlmasa, u shu til hodisasini ishlatar ekan, dastlab toʻgʻri yoki xato qoʻllaganini nazorat qila olmaydi. Biz bu oʻrinda D.V.Bulatova izohlagan, ruhshunoslar tomonidan ilgari surilgan oʻz-oʻzini nazorat qilishning toʻrt darajasini eslatishni lozim topdik: «Oʻz-oʻzini nazorat qilishning birinchi darajasida bola oʻz nutqida xatoga yoʻl qoʻyadi, lekin buni payqamaydi, buning ustiga xato qilgani biror yoʻl bilan eslatilsa, u oʻz xatosini tuzata olmaydi. Chunki bu bosqichda bolada grammatik nazorat qilish malakasi shakllanmaganlikdan tashqari, oʻz xatosini tuzatish imkonini beradigan bilim ham boʻlmaydi. Ikkinchi darajada bola oʻz nutqida grammatik xatoga yoʻl qoʻyadi, lekin buni payqamaydi. Oʻqituvchining ishorasidan keyingina oʻz xatosini topib, uni tuzatishga harakat qiladi. Bu darajada oʻz-oʻzini nazorat qilish malakasi ishga tushmagan boʻlib, uni ishga tushirish uchun turtkiga ehtiyoj seziladi. Uchinchi darajada bola oʻz nutqida grammatik va boshqa xil xatoga yoʻl qoʻyadi, oʻz xatosini oʻzi payqab, oʻzi tuzatadi. Bu bosqichda boladagi oʻz-oʻzini nazorat qilish malakasi har gal kechikib ishga tushadi. Oʻz-oʻzini nazorat qilishning toʻrtinchi darajasida oʻz-oʻzini grammatik nazorat qilish malakasi umuman shakllangan boʻlib, avtomatlashgan

holda o'z vaqtida ishga tushadi: kishi gapiradigan gapidagi xatoni hali gapirmasdan turib payqaydi va tuzatib doim to'g'ri gapiradi»<sup>11</sup>.

Ona tilini o'rganayotgan o'quvchilarning har bir qoidani o'z nutqini nazorat qila olish malakasi darajasida o'zlashtirishlari zarurligi D.V.Bulatova keltirgan tasnifdan ayon bo'lib turibdi. Zero, *qoidalarni* puxta egallagan bilimli kishida o'z nutqiga e'tibor natijasida, o'z xatolarini bartaraf etishga odatlanish pirovardida nazorat malakasi avtomatik ishga tushadigan bo'ladi. O'z-o'zini nazorat qilishning to'rtinchi darajasiga erishish uchun bilimning o'zi kifoya qilmaydi: bilim → ko'nikma → malaka → o'z-o'zini nazarat qilish malakasi chizig'ida ish olib borilishi shart.

Kishi so'zlayotganda o'z talaffuzini, tanlayotgan va ishlatayotgan til hodisalarini, tuzayotgan gaplarini (nima demoqchi bo'lgani-yu, nimalar deganini); gaplarni (fikrni) o'zaro mantiqan qanday bog'layotganini; xato qilmaslik, nojo'ya so'z aytmaslik, nojo'ya gap gapirib qo'ymaslik, ovozini ko'tarmaslik va h.k.ni nazorat qiladi; qaysi o'rinlarda kerakli qoidani eslay olmaganini yoki, aniqrog'i, bilmaganini, xato qilgandan keyin eslaganini ham o'zi uchun qaydlab boradi; yozayotganda yozuv texnikasiga e'tibor beradi. O'qiyotganda esa ovoz hamda ifodalilik diqqat markazida bo'ladi; nutqni tinglayotganda aytilayotgan gaplarning mazmuni-yu, gapirayotgan odamning muddoalarini to'liq tushunishga intilish kuzatiladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarga yangi bilim berilgach, bu bilim, tabiiyki, mustahkamlanishi: BKM shakllantrilishi kerak. Bilimni o'zlashtirishning asosiy jihati – uni esda olib qolish, zarur bo'lganda, tez, avtomatik eslashdir. Agar bilimni o'zlashtirishga oz vaqt ketsa, *ko'nikma va malakani hosil qilishga bir emas, bir necha dars zarur*. Shuni ham yodda tutish zarurki, ko'nikmaning shakllanishiga mashq materialining ozligi ham salbiy ta'sir qiladi. Shunga ko'ra material kam mashqlarga haddan tashqari ko'p vaqt ajratmaslik lozim.

O'quvchi termin aytilganda, tegishli til hodisalarini yodiga keltirsa, tavsif va tasniflarni ham mustahkamlashga zaruriyat qolmaydi. O'qituvchi o'quvchilarning nutqini o'stirish maqsadi bilan darsliklardan qoidalarni ajratib chiqsagina, ta'lim jarayonini nishonga to'g'ri qaratadi. Lekin, afsuslar bo'lsinki, so'zlovchining til o'rganish ehtiyoji bilan ona tili darslarida o'rganiladigan materiallar o'rtasida ziddiyat bor:

<sup>11</sup> Йўлдошев Р.А. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки нутқини уларни кўп гапиртириш орқали ўстириш методикаси (Гальим рус тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2012. – 113-бет.

darsliklarda ta'rif, tavsif, tasniflarni mustahkamlashga doir topshiriqlar ustuvorlik qiladi. Chunki qoidalar kam: o'quv yili mobaynida o'rganiladigan nazariy ma'lumotlarning oz qismidagina qoidalar uchraydi, o'qituvchi bilimlar ustida o'zi odatlanganidek romponentlarini ajratmay ish olib boradi.

Aslida ona tili darslarida e'tiborni ko'proq qoidalarga, til hodisalarining aytilishi, yozilishi va qo'llanishiga (tovush, so'z, so'z shakli, qo'shimcha va h.k.) qaratish zaruriyatdir. Qoidada so'z va grammatik shakllarning ko'pincha aytilishi va yozilishi, ba'zan nutqda qo'llanishi tushuntiriladi. «Aytilishi» va «yozilishi» degan ifodalar juft ishlatiladi. Sababi, aytilishi shunchaki ta'kidlanmaydi: u orfoepiya qoidasini anglatadi. Orfoepiya so'z va so'z shakllarining adabiy tildagi talaffuzini me'yorlaydi. Boshqacha aytganda, so'z va so'z shakllari qoidada ko'rsatilganidek talaffuz qilinishi kerak. Masalan, 7-sinf darsligida (50-bet) quyidagi qoida berilgan: G' tovushi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shilganda -qa holatda talaffuz qilinsa ham, -ga tarzida yoziladi.

Qoidadagi «G' tovushi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shilganda -qa holatda *talaffuz qilinsa ham*» ifodasi orfoepik qoida, lekin shakllanmagan qoida; uni «g' tovushi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shilganda -qa holatda *talaffuz qilinadi* (bog' + ga → boqqa kabi)», deb qoidaga aylantirish lozim. Bu narsa o'qituvchining o'quvchilardan to'g'ri talaffuzni talab etishi uchun asos bo'ladi.

Mashq avval orfoepik qoidani va imlo qoidasini mustahkamlashga qaratiladi, keyin bevosita aytilishi, yozilishi, qo'llanishi yuzasidan bilim → ko'nikma → malaka – o'z-o'zini nazorat qilish malakasi (nutqiy kompetensiyani shakllantirish) chizmasida ish olib boriladi, ya'ni dastlab qoida, keyin uni amalda qo'llashga doir mashqlar bajariladi.

Ona tili darslarida mashqlar pirovardida bilim va malakalarni hosil qilish maqsadlarining ikkalasiga talab darajasida erishish kompetensiyaviy yondashuv talabidir.

**Mashq – bilimlarni o'zlashtirish, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilish vositasi.**

Bilim → ko'nikma → malaka → o'z-o'zini nazarat qilish malakasi chizig'ida muvaffaqiyatli ish olib borib, ham nutqiy kompetensiyani, ham lingvistik kompetensiyani shakllantirish uchun darsda til hodisasini o'rganish bo'yicha yetarli miqdorda va zarur sifatga ega bo'lgan mashq turlari tavsiya etilgan bo'lishi kerak.

Mashqlar turlarga asosan shartlariga qarab ajratiladi. Masalan, qaysi til hodisalari mustahkamlanayotganidan qat'i nazar aniqlash va izohlash talab etiladiganlari bir turdagi mashqlar sirasiga kiritiladi.. Ayrim mashq shartlarida til hodisalarining qo'llanish sababini tushuntirish so'raladi, ba'zilarida shunchaki o'qib, nimagadir e'tibor berish, diqqat qilish, ko'chirish va nimaningdir tagiga chiziq chizish kabilar bir turni tashkil etadi. Gaplar tuzish, matn yaratish (hikoya tuzish) va boshqa xil shartlar alohida-alohida mashq turlarini ajratish imkonini beradi.

Mashqlarning qancha va qanday bo'lishi zarurligi til hodisasining murakkablik darajasiga bog'liq. Masalan, bo'lishli va bo'lishsiz fe'l tushunchasini anglatish, agar uslubiy bo'yoq bilan bog'liq murakkab shakllar ko'zda tutilmasa, bo'lishsiz fe'lning asosiy shakllarini ko'rsatish uchun darsning bir qismida bir-ikki mashq kifoya qiladi, chunki o'quvchilar bo'lishsiz fe'lning asosiy shakllaridan o'z nutqida keng foydalana biladilar.

Mashq turlari har xil maqsadlar uchun xizmat qiladi: biri bilimni mustahkamlashga, biri tushunchalarni farqlashga, biri qo'shimchalarni to'g'ri qo'llashga, ularning talaffuzi va imlosini o'zlashtirishga va hokazo yordam beradi. Nima maqsadda berilganiga qarab mashqlar miqdorining yetarli yoki yetarli emasligiga ham baho berish lozim bo'ladi, masalan, ayrim qo'shimchalarning qo'llanishini puxta bilib olish uchun mashqlar ko'proq tavsiya etilgani ma'qul.

Ba'zi til hodisalarining malaka darajasida egallanishi uchun bir necha dars davomida bir tipdagi uch-to'rt va undan ortiq mashq bajarilishi shart. Faqat bir dars bilan, shunda ham yolg'iz bir mashq turi bilan kifoyalanish esa ko'nikmadan nari o'ta olmaslikka sabab bo'ladi.

Agar bir mashq turi (masalan, til hodisasini aniqlash va izohlash talab qilinadigan mashq) har bir mavzuda bittadan bo'lsa, har safar yangi mavzu bo'yicha bilim ustida ishlanib, shu bilim yuzasidan faqat ko'nikma hosil qilinadi, xolos. Boshqacha aytganda, mustahkamlash ishlari *na lingvistik va na nutqiy kompetensiya darajasiga yetmagan holatda to'xtayveradi*.

O'qituvchi mashq turining ko'nikmadan malakaga o'tish imkonini berish-bermasligini, o'quvchilarning nutq saviyasini hisobga olishi, ijodiy yondashishi lozim. Masalan, gaplarni o'qib o'rganilayotgan nazariy ma'lumot unsurlari asosida izohlash talab etiladigan yolg'iz mashq ko'nikma hosil qiladi, lekin malakaga o'tish imkonini bermaydi; matnni o'qib, til hodisasiga e'tibor berish so'raladigan mashqlar esa nazariy bilimni ishga solish bilan bog'lanmaydi, binobarin, ko'nikma ham

shakllanmaydi. O'quvchi 5-6 ta mashq bajarib, ya'ni gapni o'qib, undan o'rganilayotgan til hodisasini aniqlab, fonetik, morfologik yoki sintaktik tahlilni hech tutilmay amalga oshira boshlasa, unda malaka yuzaga kelgan bo'ladi.

Ko'nikmadan malakaga o'tish jarayoni leksik va grammatik amallarni bajarishdagi jadallashuv bilan tavsiflanadi, shu boisdan bir mavzu uchun bir necha mashq tanlashda buni nazarda tutish muhim.

Bir turdagi mashqlarning (masalan, til hodisasini aniqlash va izohlash) har xil mavzularda takror-takror uchrashi o'quvchilarda uni *bajarish usuliga odat paydo qiladi*, faoliyat usulining malaka darajasida egallanishini ta'minlaydi. Ammo bu malakaning o'tilayotgan *mavzularni o'zlashtirishga aloqasi bo'lmaydi*. O'qituvchi mashq turini e'lon qilishi bilanoq o'quvchilar uni qay tarzda bajarish zarurligini bilgan holda ishga kirishaveradilar. Lekin har gal yangi mavzu bo'yicha o'rganilayotgan til hodisasini aniqlash va nazariy ma'lumotdan foydalanib (yoki uni qisman o'zgartirib, o'z so'zlari bilan) izohlash bilim sanalgani uchun ham ko'nikma va malaka hosil qilish ustida yangidan ish olib borish zarur bo'laveradi.

Mashq turi o'quv yili davomida bir-ikki martagina uchrasa, uni bajarish usuli ham o'quvchilar tomonidan yangi sifatida qabul qilinib, avval shu usul tushuntirilishi lozim bo'ladi, unga nisbatan malaka paydo bo'lmaydi. Demak, bunday mashq bilimni ham ko'nima darajasidagina egallash imkonini beradi.

Avval ko'nikma, keyin malaka shakllanishini inkor qilish mumkin emas. Bilim → ko'nikma chizig'ini ma'qul ko'rganlar esa bilimni yetarlicha mustahkamlash, vaqti-vaqti bilan takrorlab borish kerakligini mutlaqo inkor etadilar, «tushuntirdim → bilib oldi», «u yog'i meni sira qiziqirmaydi» qabilida ish tutadilar.

O'zbek tilidagi *ko'nikma* va *malaka* tushunchalari rus tilida *умение* va *навык* tushunchalariga mos keladi. Bu yerdagi ko'nikma *уменига*, malaka *навыкка* teng. Zero, rus tilidagi metodik va boshqa xil adabiyotlarda ta'limning pirovard mahsuli – *навык* haqida gapiriladi. O'qituvchi rus tilidagi metodik adabiyotlardan foydalanganda buni nazarda tutishi lozim.

Qaysi til hodisasi yuzasidan malaka hosil bo'lsa, nutq jarayonida shu til hodisasi avtomatik yodga keladi, o'z-o'zini nazorat qilish malakasi ishga tushadi. Ko'nikma darajasida tanishilgani esa kechikib xotirlanadi yoki umuman yodga kelmaydi. Masalan, so'zlovchi bir ma'noni ikki va



undan ortiq shakl bilan ifodalash mumkin bo'lganda, sensor malaka<sup>12</sup> hosil bo'lganini ishlatadi. Biror shevada gapirishga odatlangan odamda ham shunday holat kuzatiladi: uning tiliga adabiy tildagi shakldan oldin shevaga xos shakl keladi. So'zlovchining nutqida faollashgan so'z va so'z shakllari, sintaktik qurilmalargina malaka darajasida pishiq va puxta o'zlashgan bo'ladi.

Xotira malaka bilan bog'liq. Yozganda qo'l harakatlari malakasi (motor malaka) ishga tushadi. Shunday malakasi bor o'quvchi harflarni qanday yozish haqida deyarli o'ylamaydi, u ko'proq nimani yozish, ya'ni mazmun to'g'risida bosh qotiradi. Demak, eslab qolish (xotirada olib qolish) hali malaka emas: «malaka hosil qilish» darkor. Har qanday malaka turli daraja holatida shakllangan bo'ladi: mustahkam egallangan malaka vaqt o'tib yemirilishi ham mumkin.

Mashq turlari nutqiy faoliyat qanday kechishiga qarab nazariy bilimlarni uch xil (retseptiv, reproduktiv va mahsuldor) darajada mustahkamlaydi. O'qib, til hodisasiga e'tibor berishni talab etadigan mashqlar retseptiv, uni nazariy bilimdan foydalanib izohlash reproduktiv, o'z mushohadalarini bayon qilish so'raladigan mashqlar mahsuldor sanaladi.

Ketma-ket bajariladigan mashq turlarini tizimlashtirishda, material tanlashda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

o'tilayotgan mavzuda retseptiv mashqlardan so'ng birdaniga mahsuldonga o'tmaslik;

o'quvchilarda saylanma tahlil ko'nikmalari mashqdan-mashqqa rivojlanib borishini ta'minlash;

misollar aniq va tiniq bo'lishi: dastlabki mashqlarda chalkashlikka yo'l qo'yadigan, o'quvchini behad ikkilantiradigan misollar bermaslik: «*Kursi deraza yonida, divandan ikki qadam narida edi*» gapida *ikki qadam narida edi* ajratilgan kesim; «*Hech narsa bosolmaydi: na g'urur, na..*». singari bo'lishsizlik va so'roq olmoshlari ega vazifasida keladigan gaplarni ham ma'lum tayyorgarliksiz tahlil uchun bermaslik; gap bo'laklarini aniqlashga doir dastlabki mashqlarda uyushiq bo'lakli gaplarni bermaslik; *ko'pchilik* so'zini ega deyish ham o'quvchilarni ikkilantiradi; til hodisasini bir tomonlama tahlil qilishga yo'l qo'yimaslik, masalan, *ham* bog'lovchisi ikki xil vazifada kelishini e'tiborga olish va h.k.

<sup>12</sup> Тихомиров О.К. Психология: Учебник / Под ред. О.В.Гордесовой. – Москва: Высшее образование, 2006. – С. 208.

Nima mustahkamlanayotganiga qarab malaka hosil qilishga yordam beradigan bir xil yoki bir-biriga yaqin mashq turlari yetarlicha miqdorda bajarilmog‘i, bajarish sur‘ati jadallashmog‘i lozim, ya‘ni malakaning hosil bo‘lishi yetarlicha mashq qilinganiga bevosita bog‘liqdir. Masalan, biror yangi til hodisasini nazariy jihatdan anglash uchun qo‘llanish sababini aytish, uni izohlash, tushuntirish kabi shartlarga ega bo‘lgan yetarli miqdordagi mashqlar zarur, nutqda faol qo‘llash uchun ham ko‘p mashq qilish kerak. Ushbu ikki xil BKM (bilim va til hodisasi) qo‘shilib, pirovardida til hodisasini avtomatik tarzda atash, boshqalaridan farqlash, qo‘llash malakasining shakllanishini ta‘minlaydi.


Mashq materiallarining hajmi: ko‘p-ozligi ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga ta‘sir qiladi: ular kichik hajmli, oz bo‘lsa, o‘quvchilarning mashq bajarishdagi ishtiroki, faolligi kam bo‘ladi, binobarin, natija ham shunga yarasha bo‘ladi: mashq uchun vaqt kamroq ajratiladi.

Xullas, bir turdagi mashqlarning nechta bo‘lishi, necha darsda qanchadan bajarilishi kerakligi, hajmi o‘rganilayotgan til hodisasi o‘quvchining undan o‘z nutqida foydalanish darajasiga, undan aqliy faollikni talab etib, qiziqtirishiga ko‘ra belgilanishi to‘g‘ri bo‘ladi: aqliy faollik fikrlash, o‘ylash, izlanish, muammo ustida ishlash tarzida kechadi, bilimlarni o‘zlashtirishning qudratli omiliga aylanadi.

### **Pedagogik texnologiya xususida**

Ona tili darslarida har bir yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlash, shuningdek, biror sathga doir o‘tilganlarni vaqti-vaqti bilan takrorlash, og‘zaki va yozma nutq o‘stirish kabi ish turlari har safar ayrim-ayrim jarayonlar, lekin bir butun pedagogik texnologiya yoki bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ikki-uch pedagogik texnologiya sifatida loyihalangan holda tashkil etilishi kerak. Bu o‘rinda pedagogik texnologiyalar yaratish, shu maqsadda amaliyotda BKMLarni hosil qilish, kompetensiyani shakllantirish yuzasidan to‘plangan, ilmiy asoslangan va amalda qayta-qayta tekshirib ko‘rilgan (kafolatli) ilg‘or ish tajribasidan, metodik tavsiyalardan tanlab foydalanish degan ma‘noda tushuniladi. Zero, shu yo‘l bilan shakllantirilgan texnologiya unga tayanib ta‘lim jarayonini takroriy tashkil etganda hamma vaqt yuqori samaraga erishishni kafolatlashi, namunaviy loyihalik tavsifiga ega bo‘lishi darkor.

Texnologik xarita tuziladimi yoki loyiha ishlab chiqiladimi, maqsad bitta: BKMLar ustidagi ishlarga yaxlitlik, uzviylik, tizimlilik, mahsuldorlik tusini berish, darsning har bosqichida bir BKMDan



boshqasiga keskin o'tish va yana avvalgisiga qaytishdan iborat rejasizlikka chek qo'yish, yuqori samaradorlikni ta'minlashdir. O'qituvchi oldida rejasizlikni bartaraf etish, samaradorlikni oshirish vazifasining paydo bo'lishi tasodifiy emas. Buni darslikdagi «sakrashlar» ham taqozo qiladi. Masalan, 7-sinf «Ona tili» darsligida<sup>13</sup> qaratqich kelishigining vazifasi va nimani ifodalashi haqida quyidagi nazariy ma'lumot hamda mashq turlari ketma-ket joylashtirilgan:

*Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelantirib bog'lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanligini bildiradi.*

125-mashq. Quyidagi birikmalarda qaratqich va qaralmishlarning qanday shakllanganini izohlang.

126-mashq. Yuqoridagi birikmalardan birinchisi va ikkinchisi o'rtasiga *chiroyli* so'zini qo'shing. U holda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin yoki mumkin emasligini aniqlang.

127-mashq. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan olingan gaplarni o'qing. Qaratqich kelishigi qo'shimchasining ishlatilishiga e'tibor qiling.

Ko'rinadiki, nazariy ma'lumotda qaratqich kelishigining qarashlilik ma'nosi aks etgan, mashq turlari esa nazariy ma'lumotga mos kelmaydigan ikki xil maqsad uchun xizmat qiladi: 1) qaratqich va qaralmishning qanday shakllanganini izohlash, 2) qaratqich kelishigi qo'shimchasining tushib qolish hodisasini aniqlash: ikkala mashq turi ham *nazariy ma'lumotni mustahkamlamaydi*. Pedagogik texnologiya bunday nomuvofiqlikka yo'l qo'ymaydi: yaxlit jarayon to'lig'icha yangi bilim bilan uni mustahkamlaydigan mashqlar orasidagi uzviylikni ta'minlash, asl maqsad – pirovard natijani qo'lga kiritishga qaratiladi. Demak, bilimdan ko'zlangan maqsaddan chetlashmagan holda mos boshqa mashq turlarini tanlash yoki darslikdagi mashq shartlariga o'zgartishlar kiritish zarur bo'ladi.

O'quvchi unga nazariy ma'lumot nima uchun kerakligini aniq tasavvur qilishi lozim. Masalan, nutqning to'g'ri, boy va ta'sirchan bo'lishi uchun qaratqich kelishigi yuzasidan qanday bilimlarga ehtiyoj bor? Ushbu savolga eng maqbul javob topilsa, tuzilajak pedagogik texnologiya maqsad sari yo'naltiridgan bo'ladi. O'quvchi nazariy ma'lumotlar yordamida nutq qanday tuzilganini o'rganadi: u yoki bu til

<sup>13</sup> Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov va boshq. – T.: Ma'naviyat, 2005. – 46-47-b.

hodisasining nomi bilan tanishadi, vazifasini bilib oladi va h.k. Til o'rganishni boshqa biror sohani (masalan, dorivor o'simliklar) o'rganish bilan taqqoslab ko'raylik. Kishi biror o'simlikning dorivor ekanligini bilsa-da, ko'pchilikka shu o'simlikning o'zini ko'rsatib tushuntirish yoki u haqda ma'lumotga ega bo'lish zaruriyati tug'lsa, birinchi navbatda ushbu dorivor o'simlikning nomini bilishi, shu nomga tayangan holda o'zi bilmagan jihatlari haqida ma'lumot topish uchun manbalarga murojaat etishi zarur bo'ladi. O'quvchi biror til hodisasining nomi bilan tanishadi, so'ng o'zi bilmagan qirralarini bilishga harakat qiladi. Shular ma'lum bo'lgach, ularni qanday o'rganish kerakligini ta'lim oluvchi, o'quvchilar jamoasining o'zi hal qiladi. Qaratqich kelishigi yuzasidan o'quvchi quyidagilarni bilishga intiladi: qaratqich kelishigi, qaratqich, qaralmish terminlari, qaratqichni qaralmishga bog'lovchi vositalarning notanish qirralari. Bu kabi real ehtiyoj pedagogik texnologiyani tuzuvchiga uni taxminlar asosida emas, balki maqsadga muvofiq tarzda ishlab chiqish imkonini beradi. Agar mashq turlari yoshlarning ehtiyojlariga mos kelsa, u holda nazariy ma'lumotni shunga moslab o'zgartirish to'g'ri bo'ladi.

Ma'lumki, darsning samaradorligini baholashda qadimdan ikki parametr nazarda tutilgan: bilimni tez anglash va qisqa fursatda o'zlashtirish. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirishda qaysi usullardan foydalanish ma'qul ekanligini hal etishda ana shu parametrlardan kelib chiqishi shart. Majmualar tuzishda maqsadi har xil bo'lgan rang-barang ish turlarini bajarish, darsning rang-barangligini ta'minlash emas, balki har xil ish turlarini har gal aniq bir maqsad sari yo'naltirgan holda birlashtirish, mavzuga oid BKM jihatlari izchillik bilan (oldinma-keyin) puxta egallashga qaratishdir.

Demak, darsning har bir bosqichi, jumladan, biror yangi mavzuni o'rganish va mustahkamlash jarayoni o'quvchilarning real ehtiyojlariga mos ravishda qaysi usullar va mashq turlari majmuasini qo'llaganda yuqori natija va samara bera olishiga qarab loyihalanaadi. An'anaviy va noan'anaviy usullar shu nuqtayi nazardan baholanadi va tanlanadi.

O'qituvchi reja tuzish, darsni (biror bosqichini) loyihalash paytidayoq quyidagi masalalarni hal etishi darkor:

– nazariy ma'lumot orqali nima o'rgatilishi, uni o'quvchilarning nutq tuzilishini o'rganishdagi real ehtiyojlari bilan nisbatlashi, nima (BKMning qaysi jihati, qaysi kompetensiya turi) shakllanitirilishi kerakligini (maqsadni) farqlab oladi;

– shu asosda nimani qancha va qanday qilib o‘rgatish hamda mustahkamlash kerakligini (metod va usullarni, mashq turlarini) belgilaydi;

– nimani qancha va qanday qilib o‘rgatish lozimligini hal etishda, shuningdek, ta’limiy jarayon yakunida erishiladigan natijani taxmin qilishda bashorat qilish usulini qo‘llaydi;

– qay tarzda nazorat qilish zarurligini ham tayin qiladi;

– ushbu ishlar nihoyasida texnologiyaning sifatiga tashhis qo‘yadi, kelgusida ushbu metodik tizimdan takomillashtirgan holda foydalanish chorasini ko‘radi;

– avvalgi tuzilgan pedagogik texnologiyani o‘xshash vaziyatlarda qo‘llash, unga tegishli tuzatishlar kiritib turish natijasida kafolatlangan hammabop pedagogik texnologiya shakllantira boriladi.

Bir darsda ham yangi mavzu ustida ishlansa, ham o‘yin (yoki o‘tilganlarni takrorlash, kichik ta’limiy yozma ish va boshqalar) tashkil etilsa, har biri uchun ayrim-ayrim loyiha tuziladi. Bir darsda bir-biri bilan bog‘lanadigan yoki til o‘qitishning umumiy maqsadi asosida birlashadigan ikki-uch jarayon (jumladan, o‘yin ham) loyihalaniishi mumkin. Agar shunday qilinsa, pedagogik texnologiya butun darsga tatbiq etilgan bo‘ladi, aksi bo‘lsa, ya’ni dabdurustdan biror bosqich (masalan, o‘yin) tashkil etilsa, u texnologiya sanalmaydi. Masalan, 9-sinf ona tili darsligida<sup>14</sup> «Ko‘rsatish olmoshli ergashgan qo‘shma gap» mavzusi bo‘yicha berilgan 117-mashq shartini tahlil qilaylik.

«Zukkolar» o‘yini. Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh bosh gap tarkibida ko‘rsatish olmoshi ishtirok etgan ergashgan qo‘shma gap tuzsin. Ikkinchi guruh bu gaplarni sodda gapga aylantirsin. Qaysi guruh to‘xtab qolsa, yutqizgan sanaladi.

O‘yin shartida grammatik topshiriq va uni bajarish natijasi (to‘xtab qolish) aks etgan, xolos. Bu yerda mashq pedagogik texnologiya darajasida loyihalangan: o‘yindan ko‘zlanadigan maqsad, mavzuni unga doir BKMLarga nisbatlagan holda o‘zlashtirish bilan bog‘liq qanday natija bashorat qilinayotganligi, tuzilajak gaplar miqdori va sifati, tashhislash o‘z ifodasini topmagan.

Darsdan bir nechta texnologik jarayonning ajratilishiga imkon beradigan omil shundan iboratki, ayrim mavzulardagi nazariy materiallar tez va oson o‘zlashtiriladi. Masalan, 8-sinfda «So‘z-gaplar», «To‘liq va

<sup>14</sup> Ona tili: Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik /N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sh.Sobirov. – T.: «Tasvir», 2009. – 128 b.

to'liqsiz gaplar» shunday mavzular sirasiga kiradi. Bunday mavzulardagi darslarda ikki va undan ortiq texnologik jarayonni mo'ljallash mumkin.

Har bir jarayon yakunida mo'jaz nazorat amalga oshiriladi: mo'ljaldagi natijaga erishilganlik darajasi aniqlanadi. Natija kutilganidek chiqmasa, sababi o'rganiladi va loyihaga tuzatishlar kiritiladi, barkamol holatga yetkaziladi. Maqsadga monand erishilgan natija aniq bo'lsa, kafolat ham tayinli bo'la boradi.

### **Kompetensiyaviy yondashuvga xos ta'limning psixologik-pedagogik omillari**

Ona tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi birinchi navbatda o'quvchilardagi o'zini o'zgacha, yaxshi tomonga o'zgartirgan holatda o'qib-o'rganishga safarbar etishda namoyon bo'ladi. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish shu kungacha iste'molda bo'lgan nutq o'stirish metodikasining aynan o'zi emas: unga ta'lim subyekting biror darajadagi nutqiy layoqat sohibiga aylanishni ko'zlab BKMLarni egallashga o'zini safarbar etishi xosdir.

Lingvistik kompetensiyani hosil qilish ona tiliga doir bilimlarni egallashdan tashqari o'quvchilarning o'zlaridagi mavjud nutq saviyasini kamol toptirishga bo'lgan intilishini ham qamrab oladi. Bilim borki, ongillik ustuvorlik qiladi: Masalan, tibbiyotda bemorni davolashning, kishining o'z-o'zini sog'lomlashtirishining dastlabki qadami tashhis qo'yishdan boshlanadi. Tashhis to'g'ri qo'yilsa, bemor dori-darmonlardan tezda shifo topib ketadi. Aksi bo'lsa, qancha dori-darmon qabul qilmasin, qancha urinmasin, ahvolda o'zgarishlar bo'lmasdan yuraveradi. Ona tili ta'limida ham shunday: o'quvchi o'z nutqini yaxshilash uchun nutqining kemtik tomonlarini tashhislay bilishi lozim. Agar tashhis qo'yilmasa, qancha nazariy bilimlar bilan qurollanmasin, nutqida jiddiy o'zgarishlar bo'lmaydi. O'qituvchining ham mehnatlari, urinishlari zoye ketaveradi.

Tayyor bilimlar, tayyor nutqiy namunalar kor qilmaydigan dori-darmonlar kabi o'quvchi nutqini o'zgartirmaydi: agar o'quvchi bilsaki, har kuni kundalik daftar tutib, esdalik yozib borsa, shu jarayonda fikr bayon qilish uchun o'zida qanday lisoniy bilim, ko'nikma va malakalar yetishmayotganini bilsa, u o'zini o'sha bilimlarni izlab topishga, o'rganishga, o'zlashtirishga, nutqiga sifat o'zgarishlarini olib kirishga intilish paydo qiladi, ya'ni undagi o'z nutqini rivojlantirishga bo'lgan psixologik ko'rsatma (ustanovka) o'zgaradi.

O'quvchining nutqi no'noq, to'mtoq bo'lsa, tengdoshlaridan ko'pincha kulgiga qoladi, bunday holatda, M.Yo'ldoshevaning ta'kidlashicha, u «samimiy yo'l bilan amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirga muhtoj»<sup>15</sup> bo'ladi. M.Yo'ldoshevaning fikricha, dars loyihasi tuzilayotganda «zarur bo'lgan pedagogik ta'sirni ham aks ettirish kerak». Pedagogik ta'sir tufayli har bir dars, har bir ish turi o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, ularni aqliy faoliyat ko'rsatishga undashi, nutq tuzilishini o'rganish orqali qanoat hosil qilishi kerak. Amaliy ahamiyati ko'rinib turgan nazariy ma'lumot, qiziqarli dars o'quvchini o'qituvchi va o'z tengdoshlari bilan hamkorlikka undaydi.

O'qituvchining darsga bo'sh tayyorgarligi, sustkashligi, so'zining maroqli chiqmasligi, mashqlarning mexanik, yarim mexanik tarzda bajarilishi va hokazolar qiziqishga salbiy ta'sir ko'rsatadi: o'quvchi darsga qiziqmasa, u berilayotgan bilimlarga loqayd bo'ladi. Shu bois mexanik ravishda bajariladigan mashqlarga ko'p vaqt ajratmaslik, zerikish tufayli yuzaga keladigan faollikning pasayishiga sabab bo'lmaslik lozim. Zero, mashqda berilgan so'z yoki gaplarni o'qib quyuy harflar bilan ajratilgan tovush-harflarni, qo'shimchalarni, so'z shakllari va birikmalarini yoki boshqa shu kabi shaklan bir xil til faktlarini aniqlash so'ralgan bo'lsa, ya'ni mexanik ravishda balarilsa, bu ish *tahlilga, o'ylashga, izlanishga undamaydi*, binobarin, *dars zerikarli chiqadi*. O'qituvchi bunday mashqlarga ko'p vaqt ajratsa, o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda katta qiziqish uyg'otish, ruhiy safarbarlikni yuzaga keltirish, ularni tahliliy faoliyatga undash uchun esa aqliy mehnatni talab etadigan mashqlar zarur. Sathdosh til hodisalarini o'zaro farqlash, shu asosda ularni atash, ya'ni tegishli terminlarni aytish va izohlash qiziqarli mashg'ulotni paydo qiladi, aqliy faollikni kuchaytiradi: o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi, samaradorlikni ta'minlaydi.

O'qituvchi dars materiallarini ko'zdan kechirib chiqishi, mashq turlariga yuqorida aytilganlar nuqtayi nazaridan baho berishi va o'rgatish ishlarini rejalashtirishi kerak. Masalan, nuqtalar o'rniga faqat **-ning** qo'shimchasini qo'yib so'zlarni yoki gaplarni o'qish talab qilingan mashq bo'lsa, u mexanik bajariladi, o'ylashni taqozo etmaydi. Basharti nuqtalar o'rniga **-ning** yoki **-ni** qo'shimchasini qo'yish so'ralgan bo'lsa, bunda o'quvchi tegishli qoida asosida ushbu qo'shimchalarning ishlatilishidagi

---

<sup>15</sup> Йулдошева М. Она тили дарсларининг педагогик асослари ва янги педагогик технологиялар // Ўзбек тили таълимида педагогик технологияларнинг ўрни: «Ўзбек тили» Дониш йанжумани ўн биринчи йилги материаллари. — Тошкент: РТМ, 2011. — 38–39-бетлар.

o'ziga xos holatlarni esga oladi, ya'ni o'ylaydi, tahlil qiladi, bilimga tayanadi, kerakli yechimga keladi, fikrlashga majbur qilgan muammoni hal qiladi.

Xullas, o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'liq safarbar etish, ularda til hodisalarini o'rganishga ishtiyoq uyg'otish, nutq tuzilishini bilishga qiziqish paydo qilish, bunda muayyan psixologik va pedagogik asoslarni ham nazardan qochirmaslik zarur.



## II BOB. NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

5–9-sinf ona tili darslarida o‘rganiladigan nazariy ma’lumotlarning til hodisalari (qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar, sintaktik qurilmalar) bilan tanishtiruvchi, ularning talaffuzi va imlosini, qo‘llanish xususiyatlarini, gap intonatsiyasini, matn tuzilishini o‘chadigan komponentlari (asosan, qoidalar, qisman tavsiflar), ushbu bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar pirovard natija – nutqiy kompetensiyani shakllantirishni ta’minlaydi.

Har bir sinfda nutqiy kompetensiyaga ona tili darslarida o‘rganiladigan jami BKMLarga to‘lig‘icha erishilganlik natijasi sifatida qaralmasligi lozim: u darsdan-darsga, sinfdan-sinfga oz-ozdan o‘rganiladigan til hodisalari yuzasidan ayrim-ayrim hosil qilib boriladi, maktab ona tili ta’limida nihoyasiga yetmaydi. Inson o‘zidagi tildan foydalanish imkoniyatlarini umr bo‘yi boyitish harakatida bo‘ladi. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasiga mavzular izchilligida o‘rganilayotgan aniq til faktlari asosida baho berish to‘g‘ri bo‘ladi. Bunda mana bularni bilmas, og‘zaki va yozma nutqda xatolarga yo‘l qo‘yar edi-yu, o‘qib-o‘rganish natijasida to‘g‘ri gapiradigan va yozadigan bo‘ldi kabi xulosalar bilan ish ko‘riladi. Qoidani eslab xatoni tuzatish esa ko‘nikma darajasidagi ongli ta’limiy faoliyat sanaladi.

So‘zlovchining nutq saviyasi biror erishilgan holatda qotib turmaydi: til muhiti ta’sirida rivojlanuvchan (harakatchan) va pragmatikaga moyil bo‘ladi. Til muhiti bo‘lmagan sharoitda yashayotgan odam esa o‘z ona tilida gapirib turmasa, nutq saviyasi asta-sekin orqaga qarab ketadi: so‘z boyligi kamaya boshlaydi, tuzadigan gaplari qashshoqlashib boradi. Kishilar o‘rtasida doimiy muloqotda bo‘lgan, o‘qimishli odamning nutqi muntazam suratda o‘shishda bo‘lib, yoqimlilik kasb etaveradi: oz-ozdan egallanayotgan nutqiy kompetensiya o‘quvchining o‘ziga, saviyasiga, yosh xususiyatlariga, til muhitiga bog‘liq ravishda rivojlanib boradi.

So‘zlovchi doimiy ravishda fikr ifodalash unsurlaridan (so‘z, so‘z shakli, sintaktik qurilma va h.k.) ma’qulini tanlashga intiladi, yangidan-yangi ma’no jilolarini aks ettirishga oshufta bo‘ladi. Bu kabi tanlash jarayoni o‘ylashga undaydi: *o‘ylashga majbur qilgan har bir til hodisasidastlab ko‘nikma darajasida qo‘llanadi*, og‘zaki va yozma nutqda oz ishlatilish oqibatida *malakaga o‘tmagan holatda xotirada olib qolinadi*. Buni *tayyorlamoq* fe’lining 7 ta ma’nodoshi misolida

tushuntirganmiz<sup>16</sup>: til egalari *hozirlamoq, shaylamoq, muhayyo qilmoq, chog'lamoq, taxt qilmoq, taraddud ko'rmoq, tadorik ko'rmoq* so'zlarini o'qib yoki eshitib tushunsalar-da, zarur bo'lganda shartta-shartta ayta olmaydilar, ularni o'z o'rnida qo'llash yana ham mushkul: demak, *nutqiy kompetensiyani shakllantirish deganda nutqiy faoliyat turlarini (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish) ayricha o'stirish ham anglanishi kerak.*

### **Til hodisalari va qoidalar ustida ishlash**

Til hodisalari (tovush, so'z, qo'shimcha va b.), qoidalar, ayrim tavsiflar nutq o'stirishning lisoniy asoslari hisoblanadi: tavsif o'quvchilarni u yoki bu til hodisasidan, uning qaysi toifaga mansubligidan voqif etsa, qoida uning orfoepik qoidaga muvofiq talaffuzi va imlo qoidalariga ko'ra yozilishi, me'yoriy grammatikaga binoan qo'llanish xususiyatlari bilan tanishtiradi.

Metodika ilmida nazariy bilimlarni anglash, uni amalda qo'llashni o'rganish masalalari ma'lum darajada yoritilgan<sup>17</sup>, chunonchi, S.S.Tajbenova ishlab chiqqan texnologik loyihaga ko'ra boshlang'ich sinflarda ona tilining nazariy bilimlarini amalda qo'llash nuqtayi nazaridan o'rgatish izchilligi misollarni kuzatish (yuqori sinflarda topshiriqlarni bajarish)dan boshlanib, tadqiq etish (izlanish) metodi asosida bolalarning o'rganilayotgan til hodisasini tahlil qilishlari, shu asosda xulosa chiqarishlari, ushbu xulosalarni darslikdagi ma'lumot bilan taqqoslashlari, darslikdagi qoidani o'zlashtirish, amalda qo'llash harakatlarini bajarishlaridan iborat etib yaxlit ikki bosqichli jarayon sifatida taqdim etilgan. 5–9-sinf ona tili darslarida bu ishlarda o'quvchilarning faol ishtiroki yanada oshiriladi: maqsad ularga dastlab darslikdagi, keyinroq esa qo'shimcha manbalardagi nazariy ma'lumotlarni (xususan, qoidalarni) mustaqil ravishda, ongli va puxta, amalda qo'llay oladigan darajada o'zlashtirishni o'rganish, shunga doir malaka hosil qilishdan iborat.

Qoida ustidagi ishlar ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin: birinchisi filologik bo'lib, o'quvchilarning lisoniy bilimi shakllantiriladi: bu bilim amalda tatbiq etilmasa, ya'ni qoidalar quruq yod olinsa, «qoidabozlik»ka yo'yiladi. Ikkinchisi nutqiy ehtiyojlarni qondirish

<sup>16</sup> Йўлдошев Р. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларни янги сўзлар билан таништириш // Тил ва адабиёт таълими. – 1992. – 5-6-сон. – 40–42-бетлар.

<sup>17</sup> Тажбенова С.С. Она тили дарсларида ўқувчиларни назарий bilimларни амалда қўллашга ўргатиш методикаси. (Таълим қозоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида). – Тошкент: «Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси», 2010. – 76 бет

bo'lib, yoshlar o'z nutqining to'g'riligiga lisoniy asos topadilar: nutqiy kompetensiyani shakllantirish uchun ayni shu ikkinchi yo'nalish mos keladi, qoidaga shu tarzda farqli yondashuv joriy etiladi.

Qoidani o'rganishda induktiv yoki deduktiv usuldan foydalaniladi. Induktivda misollar tahlilidan mustaqil ravishda xulosa chiqarishga qarab boriladi, deduktiv ko'proq termin-tushunchaga nisbatan tatbiq etiladi: o'quvchi misollar asosida qoida chiqara olmaydigan, termin ixtiro qila olmaydigan holatlarda tatbiq etiladi.

Qoidani anglatish jarayonidan so'ng uni mustahkamlash choralari ko'riladi. Shu maqsadda 5–9-sinflar «Ona tili» darsliklarida berilishiga ko'ra savol va topshiriqlar, mashqlar, qoidani yod oldirish va boshqa shu kabi ish turlari bajariladi. O'tilganlarni vaqti-vaqti bilan takrorlashda ham bo'lim oxirida, shuningdek, o'quv yili yakunida yil davomida uzoq o'tilgan bir qator mavzularni takrorlashda savol va topshiriqlar, testlardan foydalaniladi. Masalan, «His-hayajon gaplar oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?» kabi savollarga beriladigan javoblar qoidalarni yod olishga yaqin holatda eslab qolishga undaydi. Mashqni samarasizga chiqaradigan bir holatdan ogoh bo'lish, ya'ni o'quvchilarga hadeb yordam beravermaslik darkor.

Qoidani eslash jarayoni asosan *til sathidan boshlanadi: til sathi* → *tasnif* → *termin* → *tavsif, qoidalar* → *izlangan qoida* chizig'ida ish ko'riladi. Masalan, mustaqil so'z turkumlari, ot, kelishiklar, qo'shimcha, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining imlosi). Bevosita kerak bo'lgani – qoida, bavoisita bilish zarur bo'lgani – termin, tasnif, tavsif. Demak, ona tili darslarida puxta o'rgatish (tushuntirish, mustahkamlash, takrorlab borish) lozim bo'lgan nazariy ma'lumot unsurlari qoida, qolaversa, uni eslashga, qidirib topishga vositachilik qiluvchi termin, tasnif, tavsiflardir.

Yuqoridagi ish turlari olingan bilimlarni amalda qo'llashdan uzilgan holda ado etiladi, amalda qo'llash uchun esa: «Mana bu gapning oxiriga qaysi qoidaga ko'ra undov belgisi qo'yilgan?» – degan mazmundagi savollarga murojaat qilinadi: shunda mashq nutqiy amaliyot bilan bog'lanadi, o'quvchilarni o'z ijodiy yozma ishlaridagi xatolarni payqash, qoidalar yordamida tuzatish sari yo'naltiradi, binobarin, amaliy ahamiyati yanada ortadi, ya'ni til hodisasiga qarab tegishli qoidani eslash tegishli malakaning shakllanishi uchun xizmat qiladi.

*Agar darslikdagi savol va topshiriqlarda qoidaga aloqadori bo'lmasa, ularni o'qituvchining o'zi tuzishi lozim.*

Shuni ham unutmash kerakki, qoidaning qoidadan farqi bor. Bir marta eshitgandayoq esda qoladigan qoidalar bo'ladi. Masalan, darak va

soʻroq gaplarning oxiriga qoʻyiladigan tinish belgilari haqidagi qoidalar tezda yodda qoladi. Undov gapning oxiriga undov belgisi qoʻyilishi ham shu tariqa eslab qolinsa-da, bu yerda variativlik hal qiluvchi rol oʻynaydi: undov belgisi qoʻyiladigan holatlar va uning oʻrnida nuqta ishlatiladigan holatlarni bir-biridan farqlash lozim boʻladi. Demak, ayrim qoidalarni mustahkamlashga bir ish turining oʻzi kifoya qilsa, baʼzilarini oʻzlashtirish uchun chuqurroq bilimga ega boʻlish taqozo etiladi, mashqlarni koʻpaytirish zaruriyati tugʻiladi. Bu esa bir necha qoidani birlashtirib bir darsda oʻrganish va, aksincha, bir qoidaga bir necha dars ajratish haqida oʻylash kerakligini bildiradi.

Oʻquvchilar uchun ayrim qoidalarning mazmunini tushunishda qiyinchiliklar tugʻiladigan holatlar ham mavjud. Masalan, 5-sinf darsligining 97-darsida juft soʻzlarning imlosiga shunday qoidalar berilgan: *Juft soʻz oʻzaklari chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Agar juft soʻzlar -u, -yu yuklamalari bilan bogʻlansa, birinchi soʻzdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.* Ikkinchi qoida oʻquvchida oʻzaklar chiziqcha bilan ajratiladimi yoki oʻzak bilan yuklama orasiga chiziqcha qoʻyiladimi, degan savol tugʻdirishi mumkin. Bu oʻrinda idrokning aniq boʻlishi uchun keltirilgan misollarni tahlil qildirish, qoʻshimcha izoh berish shart: *kecha-yu kunduz, past-u baland, osh-u non.*

**Qoidalarni oʻzlashtirish va takrorlab borish** ishlarida mashqlar, ularning turlari hal qiluvchi rol oʻynaydi: 5–9-sinf «Ona tili» darsliklaridagi yangi mavzu boʻyicha nutqiy kompetensiyani hosil qilishga (qoidalarni, til hodisalarini anglatish, mustahkamlash va qoʻllash malakasi darajasida faollashtirishga) xizmat qiluvchi mashqlarni shartlariga koʻra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) til hodisasini qoida asosida izohlash, tushuntirish, aytib berish, uni tavsiflash;

2) til hodisalarining qoʻllanish sababini tushuntirish va shu asosda ularni oʻzaro farqlash;

3) aniqlash, topish, eʼtibor berish, diqqat qilish, belgilash yoki, tagiga chizish;

4) berilgan misollarni oʻqish yoki koʻchirib yozish;

5) nuqtalar oʻrniga mos tovush-harf, soʻz yoki qoʻshimchani qoʻyish; qoʻshimcha qoʻshilganda soʻz oʻzak-negizida yuz beradigan oʻzgarishlarni koʻrsatish;

6) bir soʻzdan bir necha xil soʻz yoki soʻz shaklini hosil qilish, soʻz yasash, soʻzlarni turlash va tushlash; sathdosh qoʻshimchalarni aytish;

7) berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish;

8) berilgan mavzuda matn tuzish; rasmga qarab (biror mavzuda) matn yaratish;

9) soʻzlar (gaplar, matn)dagi xatolarni tuzatish;

10) sheʼrni (topishmoq, hikmatli soʻz, maqol, rivoyat) oʻqish, mazmuni (gʻoyasi) yuzasidan berilgan topshiriqni bajarish;

11) badiiy asardan u yoki bu til hodisasiga 2 tadan misol topish;

12) nomi koʻrsatilgan mazmundagi oʻyinni tashkil qilish;

13) diktant (yoki biror ijodiy ish) yozish<sup>18</sup>;

14) darsliklardan tashqari qoʻshimcha ravishda bajariladigan mashq turlari.

Yuqorida sanalgan mashq turlariga ayrim-ayrim toʻxtalamiz.

**1. Til hodisasini qoida asosida izohlash, tushuntirish, aytib berish yoki uni tavsiflash talab etiladigan mashqlar, bir tomondan, qoidani ongli oʻzlashtirish, ikkinchi tomondan, qoʻllanish xususiyatlarini anglagan holda til hodisasini aniqlash va izohlash, uchinchi, oz darajada boʻlsa-da, undan nutqda ongli ravishda foydalanish uchun zamin yaratadi, yaʼni qoidani oʻzlashtirishga nisbatan aytganda, ham lingvistik, ham nutqiy kompetensiyani shakllantirish sari yoʻl ochadi. Oʻquvchi izohlash paytida koʻpincha kitobdagi qoidadan foydalanadi, til hodisasining nima uchun u yoki bu shaklda ekanligini qoida bilan izohlash yumushlari qoida bilan til hodisasi oʻrtasida assotsiativ bogʻlanish hosil qilishga yordam beradi.**

***Qoidadan foydalanish malakasini shakllantirish uchun bir mavzuga doir ushbu mashq turi bir emas, bir nechta boʻlishini taʼminlash lozim.***

**2. Til hodisalarining qoʻllanish sababini tushuntirish va shu asosda ularni oʻzaro bir-biridan farqlashga doir mashq oʻquvchilarda til birliklarini oʻzaro taqqoslash va farqlash, oʻziga xos jihatlarini aniqlash va buni soʻz bilan ifodalash (izohlash) koʻnikmalarini hosil qilib, qoidalarni oʻzlashtirishdagi onglilikni yana ham oshiradi, tafakkurni oʻstiradi. Mashqdan quyidagi maqsadlardan biri yoki hammasi koʻzda tutilishi mumkin:**

1) yangi oʻrganilgan til hodisasining qoʻllanish xususiyatlariga eʼtiborni qaratish, shu haqda oʻylashga undash orqali oʻquvchilar bilimni chuqurlashtirish;

2) avvalgi mavzularda tanishilgan qoidalar va biror jihati izohlangan til hodisalarini mustahkamlash;

<sup>18</sup> Tartib raqamlari mashqlarining bajarilishi izchilligini anglatmaydi.

3) yangi o'rganilgan qoida va til hodisasini avvalgi o'rganilgan qoidalar hamda til hodisalari bilan taqqoslash.

Tabiiyki, mashq shartida bu maqsadlarga ishora bo'lmasligi mumkin, lekin topshiriqni bajarish jarayonida ular o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Masalan, bosh harflarning ishlatilish sababini aniqlash talab etilsa, o'quvchi gapning birinchi so'zi bosh harfdan boshlanishini, gap ichida esa atoqli otlargina bosh harf bilan yozilishini sabablar sifatida ko'rsata va tushuntira olishi, ya'ni til hodisalarini bir-biridan farqlay olishi, ularni guruhlarga (sathlarga) ajrata va birlashtira bilishi, til hodisalarini o'zaro farqlagan holda namuna asosida jadvallarga joylashtira olishi lozim. Bunday mashqlar yordamida o'quvchilar o'tilayotgan mavzularni chuqur o'zlashtiradilar, mashq amallarini yanada ongliroq bajaradilar, mustaqil va tanqidiy fikrlash layoqatlari rivojlanadi, aqliy qobiliyatlari faollashadi.

Mashq og'zaki, og'zaki va yozma, yozma shakllarda bajariladi; ba'zan o'yin tariqasida uyushtiriladi. Til sathlarini qamrab olish nuqtayi nazaridan mashqlar ikki turli bo'ladi: 1) tor (oz) qamrovli mashqlar; 2) keng qamrovli mashqlar. Mashqlar jadval(lar) asosida yoki jadvalsiz ado etiladi.

Majmuaviylik asosida yondashganda mashq turlari quyidagicha nomlanishi mumkin:

- 1) jadvalga solmay og'zaki tarzda bajariladigan mashqlar;
- 2) jadvalga solgan holda avval og'zaki, so'ng yozma bajariladigan mashqlar;
- 3) jadvalga solgan holda yoki jalvalga solmay yozma bajariladigan mashqlar.

Jadvalga solish mazmunidagi mashqdan namuna:

**12-mashq.** ...Undosh tovushlarni *jadvalga joylashtiring.*

Mashq materiali sifatida tovushlar beriladi. Qo'shimchalarni jadvalga solish talab etilsa, qo'shimchalar havola qilinadi. Masalan:

-bon, -shunos, -gi, -lar, -imiz, be-, -ib, -li, -ona, -guncha, -soz, -paz, -ga, -siz

Ushbu mashq turi til hodisalarini bir-biridan ajratishga, o'ylashga, mustaqil o'rganishga undaydi, ularni chuqurroq va yaqqolroq anglash imkonini beradi, bir so'z bilan aytganda, onglilikni yanada oshiradi. Demak, *jadvalga solish mazmunidagi mashqlar ko'proq bo'lishi zarur.*

**3. Aniqlash, topish, e'tibor berish, diqqat qilish, belgilash, tagiga chizish** so'raladigan mashqlarning ahamiyati shundaki, og'zaki yoki yozma bajariladigan ushbu mashqlar o'quvchilarni kitob mutolaasi

jarayonida tanish yoki notanish ayrim til hodisalariga, ularning ma'nolari, imlosi va qo'llanishiga, bo'yoqdorligiga e'tibor berishga odatlantiradi, lekin *izohlash talab etilmagani uchun qoidani mustahkamlashga yordami yo'q darajada*. Shunga ko'ra *bunday mashqlar bir o'quv yilida ikki-uchta bo'lgani kifoya*: badiiy asardan o'rganilayotgan til hodisasiga doir misollar topish vazifasi yuqoridagi mashq turining o'rnini to'la bosa oladi.

O'quvchi mashq materialidan yoki badiiy asardan o'rganilayotgan til hodisasini qidiradi, uni topish uchun so'z va gaplarni fikran tahlil qiladi, lekin bu ishlarni asosan ovoz chiqarmay ado etadi, demak, ushbu jarayon nazoratsiz kechadi, ta'limiy jihati eng quyi daraja bilan tavsiflanadi. Shu bois qo'shimcha topshiriq bilan boyitilmasa, ularga ko'p vaqt ajratish xato bo'ladi.

**4. Berilgan misollarni o'qish yoki ko'chirib yozish talab etiladigan mashqlardan maqsad, nazarimizda, o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirishdangina iborat. Ko'chirib yozish paytida e'tibor so'zlarning tovush-harf tarkibiga qaratiladi. Lekin manbalarda imlo savodxonligini oshirishda bo'g'inlab yozishning ahamiyati benihoya katta ekanligi haqida tavsiyalar ham mavjud<sup>19</sup>. Afsuski, *grammatik topshiriq berilmagan holatlarda ushbu mashq turining qoidani mustahkamlashga dahli bo'lmaydi*. Darsda ko'chirib yozish boshqa turdagi mashqlarda ham bajarilishi nazarda tutilsa, *so'zlarni, gaplarni yoki matnni o'qish va ko'chirishga doir topshiriqlar uyga vazifa qilib berilgani, bunday mashqlar so'zlarni bo'g'inlarga ajratish topshirig'i bilan murakkablashtirilgani ma'qul*.**

Ko'chirib yozishni grammatik topshiriq murakkablashtira oladi, masalan, birikmalardagi sonlarni raqamlar bilan yozib ko'chirish. Bunda o'quvchi -ta qo'shimchasini raqamdan ajratib (10 ta), chiziqcha va chiziqchasiz yozish (2019-yil, XXI asr) bilan bog'liq qoidalarni mustahkamlaydi.

**5. Nuqtalar o'rniga mos tovush-harf, so'z yoki qo'shimchani qo'yish shartiga ega bo'lgan mashq, odatda, yozma yoki og'zaki bajarish uchun mo'ljallanadi. Lekin uni materialining xarakteriga qarab ikki turga ajratish mumkin:**

<sup>19</sup> Иудощева М. Сузларни бугунларга ажратиб ёзиш машқлари – саводхонликни оширишнинг муҳим омилли // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. I қисм. – Тошкент: ТДПУ, 2006. – Б. 82-84.

1) qoidani mustahkamlash va amalda qo'llashni o'rgatish maqsadi ko'zda tutiladigan mashqlar;

2) umumiy savodxonlikni oshirish, so'z shaklini to'g'ri tanlash va qo'llash sari yo'naltirilgan mashqlar.

1-tipdagi mashqlar og'zaki bajarilganda, o'quvchilardan nuqtalar o'rniga qo'ygan tovush-harfni, so'zni yoki qo'shimchani qoida bilan izohlash talab etilgani ma'qul. *Mashq materialini izohsiz shunchaki o'qib ketish vazifaning to'g'ri bajarilishini kuzatish imkonini bersa-da, onglik darajasini aniqlashga imkon bermaydi.* Xatoga yo'l qo'yilgan o'rinlarda buning sababini aniqlash ham qiyin bo'ladi: izohlashni talab etish esa ana shu qiyinchilikni yengib o'tishda muhim omilga aylanadi.

Ushbu tipdagi mashqlar yozma bajarilsa, uni tekshirish, tahlil qilish ishlari cho'zilib ketadi: mashqni izohli diktant tarzida o'tkazib, ixchamlikka erishish lozim. Bunda vazifa ham og'zaki, ham yozma, eng muhimi, qoidani mustahkamlash jarayoni bilan qo'shilgan holda ado etiladi, o'quvchining ilmiy nutqini o'stirish orqali lingvistik kompetensiyaga ega qiladi.

Mashq uyda yozma bajarilsa, o'ylash uchun, qoidaga qarab olish uchun imkoniyat bo'ladi: o'quvchini ilgari va yangi o'rganilgan qoidaga tayangan holda til hodisasini qo'llashga odatlantiradi. Mashq yoshlarning tilga oid qonun-qoidalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Basharti, u og'zaki bajarilib, o'quvchilardan vazifani ko'p o'ylamay ado etish talab etilsa, o'z-o'zini nazorat qilish malakasi avtomatlasha boshlaydi.

Mashq qoida bilan bog'lanmasa, so'zlarni bor tovush-harf tarkibiga qarab tez tiklash malakasini hosil qilishga qaratiladi, masalan, «*Oma haykal... yog'd...lar ich...da oft...bday porl...b tur...bdi*» kabi mashq materiali (6-sinf, 6-mashq) ikkilanish tug'dirmaydi, biror qoida bilan ham bog'lanmaydi: u uyda bajarilgani ma'qul yoki bir sidra o'qitish bilan kifoyalanish kerak. Bunday vaziyatda o'quvchi vazifani so'z yoki so'z shaklining grafik obrazini ko'z oldiga keltirgan holda ado etadi.

Mashq shartlari quyidagi variantlarda berilgani ma'qul:

1) nuqtalar o'rniga qavs ichida ko'rsatilgan yoki foydalanish uchun berilgan til hodisalaridan mosini qo'yib so'zlarni (gaplarni, matnni) o'qish yoki ko'chirish;

2) nuqtalar o'rniga o'zi lozim topgan til hodisalaridan mosini qo'yib so'zlarni (gaplarni, matnni) o'qish yoki ko'chirish;

3) nuqtalar o'rniga nima uchun u yoki bu til hodisasini qo'rganini tushuntirish.



Birinchi variant o'quvchilarni chuqur o'ylab, fikran mushohada yuritish asosida til hodisalarini o'zaro farqlab, bunda qoidaga tayanib ish tutishga o'rgatadi, ikkinchi variant mustaqil bo'lishga undaydi, uchinchisi onglilikni oshiradi.

Eslatish lozimki, mashq materiallari o'quvchida qoida doirasida ikkilanish uyg'otadigan muqobillik asosida tanlanishi va tuzilishi kerak. Masalan, ot kesim otdan boshqa so'z turkumi bilan ifodalansa, -dir qo'shimchasini olgan bo'lsa, ega bilan kesim orasida tire qo'yish zarur yoki zarur emasligi o'quvchida ikkilanish tug'diradi.

Mashq orqali o'quvchilar oldiga qo'yiladigan vazifani ularning bilim saviyasidan kelib chiqib belgilash kerak: masalan, -ga qo'shimchasining talaffuzi va imlosi o'zlashgandan so'ng g undoshi bilan boshlanadigan qo'shimcha o'tiladigan bo'lsa, o'quvchilardan g bilan boshlanuvchi qo'shimchalarni aytish, ularni atash, misollar yordamida izohlash yoki imlosi bir xil qo'shimchalarni aytib, misollar keltirishni talab etish foydalidir. Bunday mashqlar yoshlarni o'z yozma nutqidagi xatoni aniqlash va tuzatish, ikkilangan paytlarda qoidaga qarash, darslikdan zarur qoida topilmaganda qo'shimcha ma'lumot manbalariga murojaat etish vaziyatiga soladi, tegishli ko'nikmalarni hosil qilishiga yordam beradi.

Nuqtalar o'rniga mos tovush-harf, so'z yoki qo'shimchani qo'yish talab etiladigan mashqlar *o'quv yili mobaynida har 4 yoki 5 darsning birida o'tkazilgani*, shu orqali muntazamlilik ta'minlangani ma'qul.

Mashqda undalmali, ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilari tushirib qoldirilgan bo'lsa, o'quvchilardan ularni ifodali o'qishni talab etish lozim: ifodali o'qish qanday tinish belgisini ishlatish kerakligiga ishora qiladi, onglilikni oshiradi, nihoyat, o'quvchilardan nuqtalar o'rniga qo'yiladigan tinish belgilarini izohlashni yalab etish yoki ularga gaplarni diktant tarzida ifodali aytib turib yozdirish kerak. Aytib turib yozdirish uchun mo'ljallangan gaplar darslikda bo'lmasligi lozim (o'z-o'zini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan yozma ish bundan mustasno).

**Gap mazmunini tinish belgisini qo'yib o'zgartirish talab etiladigan mashqlar uyushiq, ajratilgan gap bo'laklarida, undalma va kiritmalarning intonatsion xususiyatlari mohiyatini chuqur anglash, ongli ravishda gaplarni ifodali o'qish, shu asosda (qoidadan tashqari) tinish belgilarini to'g'ri ishlatish imkonini beradi.**

**6. Bir so'zdan bir necha xil so'zlar hosil qilish, so'z yasash, so'zlarni turlash va tushlash; sathdosh qo'shimchalarni aytish talab**

etiladigan mashqlar o'quvchilarda so'zning tovush-harf tarkibidagi o'zgarishlarga bo'lgan e'tiborni oshiradi; ayrim so'zlarning tovush-harf tarkibidagi yaqinlik va farqlarni ko'rishga odatlantiradi.

*Bu kabi mashqlar o'quv yilida 3-4 marta o'yin tazida o'tkazilishi, asosan uy vazifasi sifatida bajarilishi maqsadga muvofiq.*

Darsliklardagi ba'zi mashqlarda o'quvchilardan tanish so'zlardan yangi so'zlar yasash talab etiladi. Lekin ular yangi so'z yasashni emas, aslida yasama so'zlarni aniqlash, tanish so'zning yangi ma'nosini anglash malakasiga ega bo'lishlari, yasama so'zlarga e'tibor bilan qarash malakasini hosil qilishlari kerak.

O'quvchilarning so'z boyligi, bir tomondan, yangi so'zlar bilan tanishish, ikkinchi tomondan, yangi ma'no qirralarini kashf etish, uchinchi, tanish, shuningdek, olinma so'zlar doirasida so'z hosil qilish (so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yoki boshqa yo'llar bilan so'z yasash, kalkalash yo'li bilan so'z yasash) orqali ortib boradi: umumta'lim maktablarida yasama so'zlarni o'rganish dasturda ko'zda tutilgan so'z yasovchi qo'shimchalar, so'z yasash usullari bilan chegaralanmaydi: o'quv fanlariaro aloqa orqali bu ishlar ko'lami behad kengayadi.

O'qituvchi o'tgan asrning 70-80-yillarida yaratilgan metodik qo'llanmalar, e'lon qilingan ilmiy maqolalar bilan tanishar ekan, turlash, tushlash, so'zni egalik qo'shimchalari bilan o'zgartirish degan ifodalarga duch keladi. Bugungi kunda ushbu tushunchalardan qisman voz kechilgan (turlash, tushlash tushunchalari ham parallel ishlatimoqda).

Metodik adabiyotlarda so'zlarni turlash va tushlashni o'rgatish masalalari keng yoritilgan, shu boisdan biz bu masalalarga alohida to'xtalmaymiz.

**7. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzish talab etiladigan mashqlar o'rganilayotgan qoidani mustahkamlash bilan bog'lanishi yoki bog'lanmasligi mumkin. Agar tayanch shakldagi so'zlar tavsiya qilingan bo'lsa, mashq grammatik topshiriqli bo'ladi. Agar so'zlar qo'shimchalar olgan holatda bo'lsa-yu, ularni tartibga keltirish so'ralgan bo'lsa, bu so'z shakllari ma'nosidan gap mazmuniga qarab borish izchilligida amalga oshadi, lekin qoida mustahkamlanmaydi.**

*Bu kabi mashqlar gapda so'z tartibini o'rganish, murakkabroq sintaktik qurilmalarni egallash bilan bog'liq ravishda o'tkazilishiga o'zini oqlaydi; aks holda ular bir o'quv yilida ikki-uch marta berilishi to'g'ri bo'ladi.*

Yuqori bosqichda gap tuzishga doirq mashqlar uslubiy qoidalarni egallash sari yo'naltirilgan bo'ladi. 8- va 9-sinf darsliklarida uslub turlarini o'rganish munosabati bilan til hodisalarini uslubiy tahlil qilish, uslubiy farqlarini (belgilarini) ko'rsatish talab etiladigan mashqlar berilgan. 8-sinf «Ona tili» darsligidagi 232-mashq sharti shunday talabga ega: Qo'shma gap va uyushiq kesimli sodda gapdan iborat juftliklar hosil qiling. Ularni o'zaro qiyoslab, ma'noviy-uslubiy farqlarini izohlang.

9-sinfda bunday mashqlar ko'proq, shuningdek, quyidagi kabi ayrim savol va topshiriqlar ham kiritilgan:

Ergash gapli qo'shma gap qanday qilib sodda gapga aylantiriladi?

Bir ma'noni ifodalagan sodda va qo'shma gaplar o'rtasida qanday uslubiy farq mavjudligini izohlang (26-dars).

Matnning qaysi uslubga xosligini va o'ziga xos uslubiy belgisini ayting (57-dars)/

Gaplardan uyushiq bo'laklarni, umumlashtiruvchi so'zni, ajratilgan va ajratilmagan bo'laklarni, kiritmalarning uslubiy maqsadini tushuntirish, ularni ohang jihatdan to'g'ri o'qish singari uslubiy mashqlardan 5–7-sinflarda ham foydalanish mumkin: ular ayrim uslubiy qoidalar bilan amaliy tanishish imkonini beradi.

**8. Mashqdagi xatolarni tuzatish** o'quvchilarning so'z va so'z shakllarini qo'llash hamda imlo savodxonligini oshirish vositasi hisoblanadi. Mashq orqali o'quvchi xatoni ko'ra bilishga odatlanadi, xatoning qaysi qoidaga dahldor ekanligini ham aniqlay olish, uni unutgan bo'lsa, kitobdan topa bilish malakasini hosil qiladi.

5-sinf «Ona tili» darsligida berilgan 23-mashqni ko'rib chiqaylik:

Mashqimiz «Xato toping» deb nomlanadi. Matnda kichik harflar bilan berilgan so'zlarni to'g'rilab bosh harflar bilan yozing.

Bu yerda qaysi til hodisasi nazarda tutilganligi aniq ko'rsatilgan. Lekin darsliklarda aniq bir til hodisasiga ishora qilinmagan mashqlar ham bor. Ular o'quvchini o'tilganlarni bir sidra takrorlab chiqishga undaydi.

Darslikda *bu kabi mashqlar bir-ikki marta berilishi maqsadga muvofiqdir*, chunki uni boshqacha variantda ham tashkil etish mumkin. Masalan, o'qituvchi darslikdagi biror mashq materialini o'quvchilarga aytib turib yozdirgach, o'z yozganlarini darslikka qarab tekshirish, o'z xatolarini topish va o'tilgan qoidalarni eslashni vazifa qilib beradi. Bunday amallar, ayniqsa, qoidalarni xotirlash har tomonlama foydalidir. Xato yozilgan gaplardan xato topish uchun bilim va uquv zarur. Bilim

yetishmasa, o'quvchi xatoni ko'rmaydi, demakki, uni tuzatmaydi, natijada dars vaqti bir qadar behuda sarf bo'ladi.

**9. Berilgan mavzuda matn tuzish; rasmga qarab matn yaratish (insho yoki hikoya yozish)** talab etiladigan mashqlar o'quvchilarni o'z fikrlarini qog'ozga tushirish mashqi sifatida kundalik tutish barobarida katta ahamiyatga ega. Biz bunday ijodiy yozma ishlarga ko'p to'xtalmaymiz, chunki «Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi» nomli metodik qo'llanma ayni shu masalaga bag'ishlangan<sup>20</sup>.

Matn tuzishga doir mashq shartlarida ba'zan «...his-hayajon gaplardan foydalaning» kabi grammatik topshiriq o'z aksini topadi, tayanch so'zlar tavsiya etiladi: o'quvchilar ko'pincha ayni grammatik topshiriqni uddalay olmaydilar, chunki bunday topshiriqni bajarish uchun ularga matnga his-hayajon gaplarni qay tarzda kiritish lozimligi haqida qo'shimcha tushuntirishlar berish kerak.

Yaratilayotgan matnni dars mavzusi bilan bog'lash kerakligi o'quvchilar uchun qoidaga aylanmaguncha, ularga tegishli bilim berilmaguncha grammatik topshiriqni bajarish odat tusiga kirmaydi.

Rasm asosida matn tuzish (hikoya yozish) shartiga ega bo'lgan mashqlarni uch guruhga ajratish mumkin: 1) tayanch so'zlar tavsiya etilgan bo'ladi; 2) grammatik topshiriq berilgan bo'ladili; 3) uy ishi sifatida topshiriladi.

Metodik adabiyotlarda quyidagi kabi rasmlardan foydalanish tavsiya qilinadi: situativ-kompozitsion, obzor-mavzuviy, situativ-syujetli, fabulali rasmlar.

O'quvchilarga rasmga qarab gap tuzish, hikoya qilishni o'rgatish masalalari metodik adabiyotlarda keng yoritilgan..

**10. She'rni (topishmoq, hikmatli so'z, maqol, rivoyat) o'qish, mazmuni (g'oyasi) yuzasidan berilgan topshiriqni bajarish til hodisalari bilan bog'langan holda tahlil qilinsagina qiymati, ona tili darslariga dahldorligi yanada ortadi.** Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar K.M.Mavlonovanning monografiyasi<sup>21</sup>, A.Ergashevaning metodik

<sup>20</sup> Yo'ldoshev R.A., Rixsiyeva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi: Metodik qo'llanma. – Toshkent: «Fan, va texnologiya», 2018. – 156 b.

<sup>21</sup> Мавлонова К. Она тили дарсларида бадий матннинг тил хусусиятларинин интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Mashhur-press, 2016. – 252 б.

qo‘llanmasi<sup>22</sup>, metodist olim T. Yusupovning nomzodlik dissertatsiyasi va monografiyasida<sup>23</sup> o‘z aksini topgan.

**11. Badiiy asardan u yoki bu til hodisasiga 2 tadan misol topish** so‘ralgan mashqlar ona tilini adabiyot darslari bilan integratsiyalash imkonini berib, nutq o‘stirishni pragmatika darajasiga yetkazish imkonini beradi. Bunday mashqlar uy vazifasi sifatida o‘zini oqlaydi, chunki o‘rganilayotgan til hodisasi qatnashgan bitta ma‘qul (ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatli) gap topish uchun ko‘p o‘qish lozim bo‘ladi, shu bois ancha vaqt sarflashga to‘g‘ri keladi.

**12. O‘yin tashkil qilish.** Nutq o‘stirish bilan bog‘liq o‘yinlar yo o‘tilgan qoidalarni puxtalash, yo til hodisalarini mustahkamlash maqsadini ko‘zda tutishi kerak. Qoidaga aloqador o‘yinlar «Qoidalar bilimdoni», «Kim qoidani darslikdan tez topadi?» mazmunida bo‘ladi. Til hodisalarini mustahkamlashga qaratilgan o‘yinlar «Kim qoida bilan tezroq izohlaydi?», «Qaysi qo‘shimchalarning fonetik variantlari yo‘q?» tarzida ta‘riflanadi.

**13. Diktant (yoki biror ijodiy ish) yozish nazorat, shuningdek, ta‘limiy maqsadlarni ko‘zda tutib, til hodisalarini ongli ravishda qo‘llash, izohlashni talab etadi, shu orqali amaliy ahamiyati namoyon bo‘ladi.**

Diktant o‘qituvchining materialni o‘qib berish yo‘siniga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: 1) orfografik diktant, 2) orfoepik diktant.

Ayrim o‘qituvchilar o‘quvchilarga yordam bo‘lsin deb so‘z va so‘z shakllarini yozolishiga mos qilib aytib turib yozdiradilar. Bunday diktant yoshlarni hayotga tayyorlamaydi: hayotda orfoepik me‘yorlar asosida so‘zlangan nutqni qog‘ozga tushirish vaziyatlari ko‘p bo‘ladi.

Diktantning boshqa turlari (saylanma diktant, izohli diktant, biror topshiriqli diktant va h.k.) til hodisalarini o‘zaro farqlab, qo‘llanishini qoida bilan izohlash kabi bilimlarni ishga solish imkonini beradi.

Saylanma izohli diktantni tashkil etish mumkin bo‘lgan mashqdan namuna:

---

<sup>22</sup> Эргашова А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараёнида нутқ ўстириш методикаси. – Тошкент: «Fan va texnologiyalar», 2010. – 69 б.

<sup>23</sup> Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси (5- ва 8-синф она тили дарслари мисолида). Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2009. – 174 бет.; Юсупова Т. Галнинг бош булақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.

Berilgan gaplarda lug'aviy shakl yasovchi *qo'shimchalarni ajratib*, ularning qanday ma'nodagi shakl yasayotganligini *tushuntiring*.

O'quvchilar o'qituvchi aytib turgan (yoki o'qib bergan) gaplarni tinglab, diktant yozadilar: shakl yasovchi qo'shimchalarni ajratib yozib, grammatik topshiriqda talab etilganidek izohlaydilar.

#### **14. Darsliklardan tashqari qo'shimcha ravishda bajariladigan mashq turlari**

Bunday mashqlar sirasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. «Kim ko'p qoidalarni biladi?», «Kim qoidani tez topa oladi?» kabi o'yinlar.

2. Matndagi qiyin orfogrammalarni aniqlash va izohlash.

### III BOB. LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayoni termin, tavsif va qoidani o'zlashtirish bilan bog'liq ish turlari, mashqlardan iborat bo'ladi. Termin va tavsiflarni tushuntirish yumushlari asosan deduktiv usulga ado etiladi. Bunda birinchi navbatda til sathi va uning tasnifiy guruhlari esga olinadi: ayonki, nazariy ma'lumotga farqli yondashib, tushuntirish jarayoni *ixcham tashkil qilinadi*. L.A.Trostensova ta'kidlaganidek, asl morfologik ishlarga sarflanadigan dars vaqtini imkon qadar qisqartirish (kamaytirish) lozim<sup>24</sup>. O'quvchi til sathi va shu sathga kiruvchi termin-tushunchalarni bilib olsa, tegishli qoidani topish uchun kalit – ochqichga ega bo'ladi.

Eng kam e'tibor berish kerak bo'lgani – ta'rif. Tavsif qoidaga yaqin turadi, masalan, unda tushum kelishigining kimni, nimani so'roqlariga javob bo'lishi, qo'shimchasi -ni ekanligi ma'lum qilinadi. Yangi mavzuni bayon qilishda shu kabi metodik, shuningdek, didaktik, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik, estetik, gigienik talablar<sup>25</sup> nuqtayi nazaridan ta'lim yo'nalishini, maqsad va vazifalarini, erishiladigan ko'nikma va malakalarni, o'quvchilar nutqining bugungi holatidagi o'zgarishlarni, maqsadga erishish yo'llarini, ta'lim vositalarini, metod va usullarni, ta'lim shakllarini, o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyat tavsifi, nutq madaniyati; muloqot odobi; o'quvchilarni qiziqtirish, faollashtirish; ta'lim jarayonini jadallashtirish va h.k. belgilab chiqiladi.

Termin ma'nosini intuitiv anglash imkoniyati bor-yo'qligiga qarab induktiv yoki deduktiv usul qo'llanadi, masalan, agar o'quvchilar shevaning nimaligini bilsalar, «Shevaga xos so'zlar» mavzusi ustida induktiv usulda (suhbat metodida) ish olib borish mumkin. O'quvchining ta'lim subyekti ekanligi, o'zi bilim olish layoqatini qo'lga kiritishi lozimligi inobatga olinadigan bo'lsa, oson qoidani darslikdan mustaqil o'qish metodini qo'llash o'rinlidir. Anglash qiyin bo'lgan holatlarda esa o'quvchilarning tahlil va faraz qilish asosida *termin-tushunchalarni kashf etishlariga umid bog'lash dars vaqtini isrof qilish bilan barobar*: bunga yo'l qo'ymaslik, gan topshiriqlarni bilib-bilmay bajarimasliklari, vazifaning ongli bajarilishini ta'minlash uchun dastlab terminni anglatib o'tishi (deduktiv usulni elementar tarzda qo'llashi) shart.

<sup>24</sup> Тростенцова Л. А. Обучение русскому языку в школе как целенаправленный процесс (морфологический аспект). — М.: Педагогика, 1990. — С. 3

<sup>25</sup> Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунара таълимнинг умумтаълим фаилари буйича малака талаблари // Ўзбекистон Республикасининг қонуи ҳужжатлари тўплами, 2017. — 13–14-бетлар.

Yangi mavzu sifatida o'rganiladigan terminlardan tashqari, darsliklarda uchrashiga qarab ba'zi topshiriq shartlaridagi notanish tushunchalarga, til hodisalariga ham e'tibor qaratiladi, masalan, quyidagi mashq shartini ko'rib chiqaylik:

Matnni ko'chiring. Unda aks ettirilgan voqealarni qayta gapirib bering. Gaplarning mazmunan bog'lanishiga diqqat qiling.

*Ish ko'pligi-yu, vaqt yo'qligidan nolimang. Vaqt ko'pligi-yu, ish yo'qligidan qo'rqing. Chunki odamni abgor qiladigan narsa – bekorchilik.* (O'. Hoshimov)

Bunday topshiriqlar bog'lanishli nutq unsurlarini bilish asosidagina bajarilishi mumkin: shunchaki e'tibor berish esa intuitiv anglashni taqozo etadi. Kitobxon busiz ham mutolaa jarayonida so'zamollikni o'rganish niyatida matndan saboq olaveradi.

**Induktiv usulga ko'ra nazariy ma'lumotni bayon qilish jarayoni** misollarni kuzatishdan, shu asosda xulosa chiqarishdan boshlanadi: ushbu mashqlar o'quvchilarni yangi nazariy ma'lumotni ongli o'zlashtirishga tayyorlaydi, ularning aqliy faolligini, qiziqishlarini oshiradi.

Darslikdagi nazariy ma'lumot ustida ishlashga o'tilganda, *suhat, o'qituvchining bayoni, oson nazariy ma'lumotlarni darslikdan mustaqil o'qish, ba'zan qoidani sharhlab o'qish* kabi metodlardan biri qo'llanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarda tug'ilishi mumkin bo'lgan bir qator savollarga javob berishni ham unutmashligi lozim.

O'quvchilarda quyidagi kabi til hodisalari yuzasidan savollar tug'iladi: *uyushgan eganing oxirgisi yoki umumlashtiruvchi bo'lak qaysi shaxsda bo'lsa, kesim shu shaxsda bo'lish-bo'lmasligi, eganing ko'rsatish olishi bilan ifodalanish-ifodalanmasligi, shaxsi ma'lum gapda eganing bo'lish-bo'lmasligi, bu yurt, bu yerlar kabi birikmalarda ko'rsatish olishi qanday vazifada kelayotganligi, undalmali gapda undalmaning ega vazifasida kelish-kelmasligi, undalma, kiritma va boshqalar tagiga qanday chiziq chizilishi, kesim majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalansa, kesim vazifasida ravish, ravishdosh shakllaridan keyin kelgan fe'l ishlatilsa, gapning shaxsi noma'lum gap bo'lish-bo'lmasligi; yolg'iz kelgan bo'lak uyushmagan bo'lak sanalish-sanalmasligi va hokazo.* O'qituvchi o'z ish tajribasi mobaynida bu kabi savollarni to'plab boradi.

Nazariy ma'lumot ustida ishlash paytida o'qituvchiga yangi mavzuni tushuntirish uchun darslikdagi gaplarni xattaxtaga yozmaslikni (slyd bo'lsa boshqa gap) maslahat bergan bo'lardik.



**Nazariy ma'lumotni dastlabki mustahkamlash** uni o'zlashtirishning navbatdagi qadami sanaladi: «Ona tili» darsliklarida berilishiga ko'ra shu maqsadda dastlab savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Alohida ruknda 3 tadan 5 tagacha (bo'lim va kurs oxirida bundan ham ko'proq) savol va topshiriqlar havola qilinadi. Masalan, 5-sinf darsligida «His-hayajon gaplar» yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar:

1. His-hayajon gap deganda nimani tushunasiz?
2. His-hayajon gaplaming qanday belgilari bor?
3. His-hayajon gaplar oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

Me'yorida o'tkaziladigan bu ish turi o'quvchilarning lingvistik mushohada yuritishdagi dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi.

Savol va topshiriqlar o'tilganlarni takrorlash maqsadi bilan o'tkazilsa, metodist olim Sh.Yusupova tavsiya etgan «Bu bizniki», «Tezyurur» kabi o'yin turlaridan foydalanish mumkin: ushbu o'yinlar o'quvchilarni til amallarini jadalroq bajarishga o'rgatadi.

### **Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga doir mashqlar**

Nazariy ma'lumotni o'rganishga doir pedagogik texnologiya loyahasida lingvistik kompetensiyani shakllantirish uchun xizmat qiladigan quyidagi mashq turlariga, ularni tizimlashtirishga ustuvor ahamiyat beriladi:

- 1) ajratib ko'rsatilgan til hodisasining nima ekanligini atab, ma'nosini izohlash (tushuntirish, aytib berish), unga tavsif berish;
- 2) berilgan til birliklarini guruhlarga (sathlarga) ajratish;
- 3) berilgan til hodisalari o'rtasidagi farqlarni izohlash;
- 4) misol keltirish;
- 5) biror til sathi haqida gapirib berish, kichik ilmiy matn tuzish;
- 6) tarqatma-didaktik materiallar ustida ishlash;
- 7) darslikdagi mashqlarga qo'shimcha ravishda bajariladigan ish turlari.

Ushbu mashq turlariga ayrim-ayrim to'xtalamiz.

**-1. Til hodisasini izohlash, tushuntirish, aytib berish, unga tavsif berish** talab etiladigan mashqlar, bir tomondan, nazariy ma'lumot unsurlarini ongli o'zlashtirish, ikkinchi tomondan, tavsif hamda qoidadan foydalanib til birliklarini izohlash – lingvistik mushohada yuritish, shu yo'l bilan lisoniy nutqda ongli ravishda qo'llash ko'nikmasini (lingvistik kompetensiyani) hosil qilishga yordam beradi.

«...aniqlang, ...izohlang» degan shartlar bilan berilgan mashqlar termin-tushuncha bilan til hodisasi o'rtasida assotsiativ bog'lanish hosil qilish, o'quvchilarda til hodisasini topish va atash, nazariy ma'lumotdan foydalanib izohlash, boshqacha aytganda, termin aytilganda, tegishli til hodisasini, uning so'roqlarini, aksincha, til hodisasi, uning so'roqlariga qarab tegishli terminni yodga keltira olish ko'nikmalarinigina hosil qilishga qaratiladi.

Quyidagi mashqlarni ko'rib chiqaylik.

**51-mashq.** Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning atash va grammatik *ma'nolarini aytib bering*. O'z bobolaringiz haqida o'rtoqlaringizga *so'zlab bering*.

O'quvchilar 6-sinf darsligining 21-betida keltirilgan nazariy ma'lumotdagi namunadan andaza olib, birinchi gapda *zotlarning* so'z shaklida *zot* so'zi insonni atash ma'nosini, *-larning* qo'shimchalari esa grammatik ma'nolarni: *-lar* qo'shimchasi ko'plik, *-ning* qo'shimchasi qaratqich kelishigi ma'nolarini bildiriyapti, degan mazmunda izoh beradilar<sup>26</sup>.

**110-mashq.** *Uyga vazifa.* Matnni yozing. Fe'llarni ajrating. Ularning nisbatini *aniqlab*, ma'nosini *tushuntiring*.

O'quvchilar darslikdan foydalangan holda tahlil qilinayotgan til hodisasini talab etilayotgan nuqtayi nazardan izohlaydilar.

Tasnifni nazariy ma'lumotdagi mazmunda emas, o'zgartirib boshqacha ifodalar bilan bayon qilish mumkin, masalan:

Ayrim so'zlar tarkibiga ko'ra ikki qismdan iborat bo'ladi: asos va qo'shimchalar.

Ayrim so'zlar tarkibiga ko'ra asos va qo'shimchalarga bo'linadi.

Tasniflarni bu tarzda xilma-xil ifodalash o'quvchilarning lisoniy mushohada yuritish qobiliyatini oshiradi, o'z nutqini o'stirishga yordam beradi, ularni darslikdagi ma'lumot ifodalari bog'lanib qolmaslikka, aynan takrorlamaslikka o'rgatadi. Shunday nutqqa qarab lingvistik kompetensiyaning hosil bo'lish jarayonini kuzatish mumkin.

Til hodisasini izohlash, tushuntirish, aytib berish, unga tavsif berish talab etiladigan mashqlar har darsda bajarilishi, ular birdan ortiq bo'lishi, ko'proq o'quvchilarning ishtiroki ta'minlanishi lozim.

<sup>26</sup> Bir qator mashqlarda o'quvchilar til hodisasini quyi sinflarda o'rganilgan ma'lumotlar asosida izohlashlari kutiladi. Chunonchi, so'z yasovchi qo'shimchalar 5-sinfda taniqtirilgan ekan, ana shu ma'lumotlardan kelib chiqiladi.

2. **Tasnifiy ma'lumotlarni mustahkamlashga** qaratilgan **guruhlarga (sathlarga) ajratish** talab etiladigan mashqlar ikki yo'nalishda bo'ladi:

1) til birliklarini atash orqali biror tasnifni (sathni) yuzaga keltirish (tasnif unsurlarini jamlab atash);

2) tasnif unsurlariga tayanib til hodisalarini guruhlash.

Tasnifiy ma'lumotni o'zlashtirish va mustahkamlashning asosiy sharti til birliklariga tayanib tasnif unsurlarini atashdir. O'quvchi tasnifiy tushunchani konkret til hodisalari bilan bog'lay olishi, tasnif unsurlarini yodiga keltira olishi, atay bilishi (lingvistik kompetensiya), keyin guruhlash operatsiyasini amalga oshirishi (nutqiy kompetensiya) kerak.

Bunday mashqlardan keyin tahlillarga o'tish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Mashqlar avval bir mavzu, so'ng bo'lim doirasida og'zaki yoki yozma bajariladi. Mashq og'zaki bajarilganda, misollar (qo'shimchalar, so'zlar, so'z birikmalari, gaplar, matn) o'qiladi, bunda talaffuzga alohida e'tibor berilib, mashq retseptiv-reproduktiv xarakter kasb etadi.

Mashq faqat yozma bajarilsa, samarasi kamroq bo'ladi, chunki bunda u izohlash bilan qo'shib olib borilmaydi.

Ba'zi mashqlar induktiv usulni qo'llagan holda misollarni tadqiq etish, ular ustida izlanish, mustaqil fikrlash, muayyan xulosalar chiqarish, hatto tasniflash, shu asosda til hodisasini guruhlarga ajratish va bu ishni amalga oshirishda asos qilib olingan belgilarni ko'rsatib, guruhlarni nomlash vazifasiga ega bo'lib, til qoidalarini, tasniflarini kashf etish maqsadida tashkil etiladigan kuzatish ishlarini taqozo etadi.

**88-mashq.** Quyidagi so'zlarni ***guruhlarga ajratish***. Ularni guruhlash imkonini beradigan belgilarni ***aniqlang***. Har bir guruhga umumiy ***nom bering***.

**Til sathlarini o'zaro farqlashga doir mashqlar** bir necha termin-tushuncha → ular mansub til sathlari → til hodisalari va aks harakat: til hodisalaridan terminni atashga qarab borish izchilligidagi tahlillar o'tkazishni taqozo etadi.

«Bu bizniki» o'yini terminlarni farqlash, saralash malakasini hosil qilish maqsadini ko'zda tutadi: o'qituvchi o'quvchilarni uch guruhga ajratadi va har bir guruhga topshirilgan sathga oid terminlarni aytish vazifasini beradi, masalan, tovush-harflarga oid terminlarni «Fonetika» guruhi, mustaqil so'z turkumlariga oid terminlarni «Morfologiya» guruhi aytadi. O'qituvchi unutish ehtimoli ko'proq bo'lgan terminlarni aralash holda aytib turadi, guruh a'zolari qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan o'zi ajratigan terminni ma'lum qiladi.

Og‘zaki va yozma bajariladigan mashqlar oqilona nisbatda bo‘lishi kerak. Lekin avval ko‘chirish, keyin tasniflashga doir topshiriqni bajarish noqulay, samarasiz, vaqt isrofgarchiligiga olib keladigan usul sanaladi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri (ko‘chirib o‘tirmay) topshiriqni bajarishga o‘tish afzal.

### 3. Til hodisalari o‘rtasidagi farqlarni izohlash

Ona tili o‘quv fanidan tasdiqlangan Davlat ta‘lim standartida «O‘zlashtiriladigan me‘yorlar» sirasida quyidagilar alohida ta‘kidlanadi:

Nutq tovushi bilan harfni, unli va undosh tovushlarni, jarangli va jarangsiz undoshlarni, umumxalq so‘zlari bilan qo‘llanish doirasi cheklangan so‘zlarni, so‘zlashuv leksikasi bilan kitobiy leksikani, adabiy til me‘yorlari bilan shevaga xos xususiyatlarni, lug‘atlarning turlarini, so‘zning lug‘aviy va grammatik ma‘nolarini, so‘zning turlanishi bilan tuslanishini, tub so‘zlar bilan yasama so‘zlarni; sodda, qo‘shma va juft so‘zlarni, so‘z turkumlarini, mustaqil so‘z bilan yordamchi so‘zni, so‘z bilan so‘z birikmasini, so‘z birikmasi bilan gapni, gap bo‘laklarini, gapning maqsadga ko‘ra turlarini, sodda gaplarning turlarini, sodda gap bilan qo‘shma gapni, qo‘shma gapning turlarini, gap bo‘lagi bilan ajratilgan izoh bo‘lakni, matn turlarini, matndagi muhim va ikkinchi darajali axborotlarni, badiiy asarda so‘zning o‘z ma‘nosi bilan ko‘chma ma‘nosini bir-biridan *farqlay olishlari*<sup>27</sup> (kursiv bizniki). Mashqlar uchun misollar tanlashda quyidagi kabi tushunchalar o‘rtasidagi tafovutlarni ham hisobga olish, ya‘ni o‘quvchilar chalkashtirishlari mumkin bo‘lgan gaplarni qiyoslash, umumlashtiruvchi bo‘lakni ajratilgan bo‘laklardan, shaxsi ma‘lum gapni ega ishtirok etgan gap va shaxsi noma‘lum gapdan farqlash orqali ajratishning oson-qiyinligiga e‘tibor berish lozim.

Farqlashga doir bilim, ko‘nikma va malakalar pirovardida o‘quvchilarni til sathlari orasidagi aloqadorlikni anglashga o‘rgatish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Shunga ko‘ra ham bunday mashqlarning mavzu doirasida bir emas, bir qancha bo‘lishiga erishish zarur.

Bir tasnifga kiruvchi tushunchalarning o‘zaro farqini aytish usuli bilimlarni ham mustahkamlash, ham umumlashtirib takrorlash, ham chuqurlashtirish va kengaytirish uchun xizmat qiladi.

### 4. Misol keltirish talab etiladigan mashqlar nazariy tushuncha bilan til hodisalari o‘rtasida assotsiativ bog‘lanish hosil qilish vositalaridan biri

<sup>27</sup> Умумий ўрта таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили: Давлат таълим стандартига шарҳ. // Таълим тараққиёти. Ахборотнома, -1-махсус сон. - Тошкент: Парқ, 1999. - 52-53-бетлар.

bo'lib, amaliy ahamiyatga molik lingvistik kompetensiyani shakllantirishning asosiy jihati sanaladi. O'quvchi termin aytilganda tegishli so'z yoki so'z shaklini, grammatik shakl yoki vositani bexato ayta boshlasa, mashqdan kuzatilgan maqsad va natijaga erishilgan deb hisoblash, bu ishga ortiqcha vaqt sarflamaslik darkor.

O'qituvchi o'quvchi keltirayotgan *misollarga befarq bo'lmasligi shart*: «*Ham o'ngga, ham so'lga qaradi*» deb gap tuzsa, sinf jamoasi faolligida tahlil qilish, odam bir vaqtning o'zida ikki tomonga qarashi mumkin emasligi haqidagi fikrga kelish lozim. «*Dam o'ngga, dam so'lga qaradi*» kabi variantda tuzatish mumkin.

Kuzatilgan darslardan birida o'quvchi ajratilgan bo'lakli gapga «*Men Botirga – unga kitob berdim*» deb gap tuzdi. O'qituvchi ushbu gapni e'tiborsiz ma'qullab qo'ya qoldi. Aslida konkretni, xususiyni (Botirga) nisbatan mavhum, umumiy (unga) izohlab kelishi to'g'ri emas: «*Men unga – Botirga kitob berdim*» bo'lishi mumkin.

E'tiborsizlik yoshlarning bilimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili darslarida adabiyot, tarix, geografiya, biologiya, rus tili, chet tillar va boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'tilgan mavzular bilan bog'liq bilimlardan foydalanish, shu sohalar bilan bog'lab gaplar tuzdirish integratsiyani yo'lga ko'yish imkonini beradi.

**5. Biror mavzuda so'zlab berish, kichik ilmiy matn tuzish talab etiladigan mashqlar o'quvchilarning lisoniy monologik nutqini o'stirish uchun xizmat qiladi. Masalan, 9-sinf darsligida quyidagi mashq sharti shu mazmunga ega:**

Uyushiq va ajratilgan bo'laklar haqida gapiring (so'zlab bering...). (9-dars).

Yangi mavzu tushuntirilib, mustahkamlashga o'tilgan paytda o'quvchilarga gapirilganlarni so'zlatishga oid ilk mashqlarda darslikdagi nazariy ma'lumotdan foydalanish vazifasi topshiriladi: tabiiyki, bu kabi topshiriqlar 5-sinfdan e'tiboran uy vazifasi sifatida ham berila boshlaydi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzularda nazariy mushohadalar yuritishlari aksariyat holatlarda og'zaki bajariladi. Yozma tahlillar jarayonida til hodisasini atash ko'rinishidagi ijodiy ishlar ham ado etiladi, pirovardida dastlab darsliklardagi nazariy ma'lumotlardan foydalanib, so'ng mustaqil ravishda kichik ilmiy matn tuzish mashqlariga o'tiladi.

8-sinf darsligida 109-mashq uyg'a vazifa qilib topshirilgan:

«Ona tili» darsligingizdan foydalanib, «*Gapning so'z birikmasidan farqi*» mavzusida kichik ilmiy matn tuzing.

Tuzilgan matn bir-ikki o'quvchiga o'qitish orqali tekshiriladi, kamchiliklar ko'rsatilib, umumiy yo'llanma beriladi.

## **6. Tarqatma materiallar (kartochkalar) ustida ishlash.**

Kartochkalardan foydalanish amaliyotda keng tarqalgan ish turlaridan biridir. Nazariy ma'lumotni mustahkamlash maqsadida tarqatma materiallardan foydalanishning o'rnini to'g'ri belgilash muhimdir: faol qatnashgan bir necha o'quvchiga keyingi bosqich davomida bekor vaqt o'tkazmasliklari uchun qo'shimcha topshiriq sifatida kartochkalar tarqatish mumkin. Topshiriq uch xil bo'lishi maqsadga muvofiq:

- 1) yangi mavzuni chuqurroq o'rganishga qaratilgan topshiriq;
- 2) biror badiiy asardan yoki adabiyot darsligidan ikki-uchta misol topish;
- 3) yangi mavzuga tegishli bo'lgan til sathi doirasida biror gapni tahlil qilish.

Bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarni boshqalarga yetkazib olish niyatida ularga kartochkalar orqali qo'shimcha topshiriqlar berish ma'qul emas: bo'sh o'quvchi ham qo'shimcha topshiriqni bajarish, ham yangi mavzuni o'zlashtirishda tengdoshlariga yetib olishlariga umid qilish xatodir.

Topshiriq yangi mavzuni o'rganish bosqichining o'rtalarida tarqatilgani, u bosqich yakunlanadigan vaqtda bajarib bo'linadigan qilib tuzilgani durust. Topshiriq olganlarning (ikki-uch o'quvchi, undan ko'p emas) javobini jamoa bo'lib tinglash, xatolarini jamoa bo'lib tuzatish, baho berish diqqatni markazlashtirib turadi. Topshiriq javoblari yangi mavzu bo'yicha o'tilganlarni oz bo'lsa-da, kengaytirish va chuqurlashtirish uchun xizmat qilishi, lekin 10-15 ta o'quvchiga kartochka tarqatib, ularning hammasini tinglash dars vaqtini isrof qilishga sabab bo'lmasligi lozim.

Xullas, nazariy ma'lumotlarni lingvistik kompetensiya nuqtayi nazaridan mustahkamlashda asosan 1-5-turdagi mashqlar samarali xizmat qiladi.

**7. Darslikdagi mashqlarga qo'shimcha ravishda bajariladigan ish turi:** tovush-harflarni, so'zlarni (ba'zan gapdan ajratilgan so'zlarni), so'z birikmalarini, berilgan gaplarni namuna asosida fonetik, morfologik, sintaktik tahlil qilish; chizma ko'rinishida tasvirlash. Bunday mashqlar o'rganilgan nazariy ma'lumotlar komponentlarini mahsuldor (eslab aytish) darajada mustahkamlash, faollashtirish va vaqti-vaqti bilan takrorlab turish imkonini beradi.

Darslikka qo‘shimcha ravishda fonetik, morfologik, sintaktik va boshqa xil tahlillar lingvistik kompetensiyani shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Til hodisalarini tasnifiy guruhlarga ajratish, misollar keltirish, ularni fonetik, morfologik va boshqa turda tahlil qilish tavsifidagi mashqlar termin-tushuncha(lar) bilan til birliklari (tovush-harf, so‘z, qo‘shimcha va h.k.) o‘rtasida assotsiativ bog‘lanish hosil qilish darajasida bajariladi.

*Tahlil turlari lingvistik termin-tushunchalarni tizimli suratda faollashtirish va takrorlashning qudratli omili sanalib, BKM hosil qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi: ularni o‘quv yili mobaynida har ikki-uch darsdan birida o‘tkazib turish shart.*

Sinfдан-sinfga yangi tasnifiy ma‘lumotlar hisobiga murakkablashib (kengayib, chuqurlashib) boruvchi tahlil jarayonida o‘quvchilar til hodisasini ko‘rib yoki eshitib tegishli terminni, tasnifni, tavsifni, qoidani yodga keltirish malakasini qo‘lga kiritadilar.

Darsliklarda berilishiga ko‘ra tahlil mashqlariga 8-sinfdan murojaat qilinadi: bizningcha, ayrim tahlil turlarini (masalan, fonetik, morfologik tahlil) 5–7-sinflardan boshlab o‘tkazish maqsadga muvofiq. Ba‘zan ikki-uch xil tahlil qo‘shilishi, masalan, morfologik tahlil sintaktik tahlil bilan birlashishi mumkin

8-sinf darsligida avval tahlil tartibi, so‘ng tahlil namunasi berilgach, topshiriq keltiriladi (44-bet): *Quyidagi gaplarni so‘z birikmalari bo‘yicha sintaktik tahlil qiling.*

Tahlil chog‘ida u yoki bu sathga oid jadval(lar) sinfda osig‘liq turgani, slayd namoyish qilingani ma‘qul.

Sintaktik tahlilda birdan ortiq so‘z bilan ifodalangan gap bo‘lagi tagiga chiziladigan chiziqlar tutashtilishi to‘g‘ri bo‘ladi: masalan: Yo‘ldosh ota (Yo‘ldosh ota emas). Tahlil, ayniqsa, vertikal yoki gorizontal chizma ko‘rinishidagi tahlil chog‘ida o‘qituvchi nihoyatda sergak bo‘lishi lozim. O‘quvchilar ayni shu mashq turida xatolarga yo‘l qo‘yadilarki, ularni o‘z o‘rnida tuzatib borish talab etiladi.

Xullas, ona tili darslarida lingvistik kompetensiyani shakllantirish ustida olib boriladigan ishlar nazariy ma‘lumotlarni o‘quvchilarning to‘g‘ri tushunishlariga erishish, shu bilimlar asosida lisoniy mushohada yurita olish mazmunidagi nutqini o‘stirish, mustahkamlash va takrorlash niyatida bajariladigan mashqlar pirovardida kutilgan natijalarni qo‘lga kiritish sari qaratilib, bu borada har darsda tegishlicha vaqt ajratib ado etiladigan izohlash, tushintirish mashqlari qatori tahlil turlariga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

## MUNDARIJA

<b>1-bob. Innovatsiyalar, kompetensiyalar, BKMLar, pedagogik texnologiyalar, psixologik-pedagogik asoslar .....</b>	<b>3</b>
<b>2-bob. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi .....</b>	<b>24</b>
<b>3-bob. lingvistik kompetensiyani shakllantirish metodikasi .....</b>	<b>38</b>



**R.A.YO'LDOSHEV, L.R.MIRJALOLOVA**

# **ONA TILI TA'LIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV**

**Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Timez Uz» garniturası.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i 2,75. Nashriyot bosma tabog'i 3,0.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi».**

**100066, g. Tashkent, ul. Almazar, 171.**